

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 330.3

ANVAROV RO‘ZI TO‘LQIN O‘G‘LI

**TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB
ETISHNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

Mutaxassislik: 5A230604-«Xalqaro moliya»

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

dots. Alimardonov E.

TOSHKENT-2019

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING UMUMNAZARIY ASOSLARI	10
1.1. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning tasniflanishi va ularga oid nazariyalar.....	10
1.2. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning milliy iqtisodiyot uchun ahamiyati	22
1.3. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning xalqaro amaliyoti.....	28
I bob bo'yicha xulosa	36
II BOB. TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH AMALIYOTI TAHLILI.....	37
2.1. Jahon iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning tarkibi va rivojlanish holati tahlili	37
2.2. O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishning asosiy omillari.....	43
2.3. Milliy iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish amaliyoti tahlili.....	50
II bob bo'yicha xulosa	59
III BOB. TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	60
3.1. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	60
3.2. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirish istiqbollari	65
III bob bo'yicha xulosa	72
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	74
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	77

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. Globallashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatlar o'rtasida investitsiyaviy hamkorlik qilishning roli ortib bormoqda. Jahon mamlakatlarida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan rivojlanayotgan davlatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2000-2016 yillarda jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi Hindistonda 20 martagacha, Turkiyada 15 marta, Vetnamda 8,9 marta, Kambodjada 8,2 marta, Myanmada 7,2 marta, Panamada 6 marta oshdi. O'z navbatida xorijiy investitsiyalarning yuqori iqtisodiy samarasi natijasida aytilgan davrda ushbu mamlakatlarda o'rtacha iqtisodiy o'sish sur'ati ham baland bo'lib, 6,5-10,5 foizgacha etgan¹.

Jahonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish mexanizmini takomillashtirish, ularning istiqbolli tarmoqlarga kirishini rag'batlantirish va ulardan samarali foydalanish muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish kengaymoqda. Chunki oxirgi o'n yilda jahon iqtisodiyotidagi nobarqarorlik, turli tahdidlarning saqlanib qolayotganligi, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda o'sish sur'atlarining pasayishi dunyoda xorijiy investitsiyalar oqimi hajmini tushib ketishiga sabab bo'ldi. Mazkur holatlar tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash asosida uning raqobatdoshligini oshirish maqsadida xorijiy investitsiyalar, avvalo to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ustuvor yo'nalish sifatida tanlangan. Ammo mamlakatimizda aholi jon boshiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish 2016 yilda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atiga ega bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan 4,5 marta, MDH mamlakatlari o'rtacha ko'rsatkichidan 3 marta kam bo'lgan. Shuning uchun ham 2017-2021 yillarda

¹ Manba: <http://www.unctad.org>

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida² «...etakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlarni siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish» ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yildi.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasi muayyan darajada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947- sonli, 2016 yil 26 oktyabrdagi «Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4853-sonli, 2016 yil 5 oktyabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4848-sonli, 2012 yil 10 apreldagi «To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi PF-4434-sonli Farmonlari va boshqa ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Hozirda jahonda jadal sur'atlarda kengayib borayotgan investitsiya jarayonlariga muvofiq investitsion muhit jozibadorligi va salohiyatini baholash, ularga ishlab chiqaruvchi kuchlarning oqilona joylashuvi ta'siri, hududlar o'rtasida vujudga kelayotgan tabiiy-demografik, ma'muriy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tafovutlarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, balanslashgan hududiy investitsion siyosatni shakllantirish, investitsion faollikni ta'minlash orqali milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruktsiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947 sonli Farmoni.

mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta‘minlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Qayd etish joizki, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda qulay investitsiyaviy muhit shakllantirildi, xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha qonun yo‘li bilan keng ko‘lamdagi imtiyozlar, afzalliklar va kafolatlar tizimi belgilandi.

Iqtisodiy barqarorlikka erishishda investitsiyaning ahamiyati katta. Shu bois yurtimizda chet el sarmoyasi ishtirokidagi sanoat korxonalari sonini ko‘paytirish hamda mahalliy xom ashyodan eksportbop mahsulotlar tayyorlashga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Bunda xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay investitsiya muhiti muhim omil bo‘lmoqda. Bu borada, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha ta’kidlab o‘tdilar, “Ma’lumki, mamlakatimizning chet davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarini yanada mustahkamlash va xorijda respublikamizning iqtisodiy imkoniyatlarini keng targ‘ib qilish orqali uning xalqaro nufuzini yanada oshirish, investitsiyalarni jalb qilishni jadallashtirish, turizm sohasini yanada rivojlantirish iqtisodiy sohadagi ustuvor vazifalarimizdan biri hisoblanadi”.³

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o‘ziga xos xususiyati mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni ta‘minlaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo‘lmoqda. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanilishi natijasida mamlakatimizda yangi sanoat korxonalari vujudga kelmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, sifatli va yuqori raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga, eng muhimi yangi ish o‘rinlarini yaratilishiga, shuningdek, mamlakatimiz eksport

³ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. 24-bet.

salohiyatining yuksalishiga imkon yaratmoqda. Ushbu holat mazkur tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqot ishning obyekti bo‘lib, jahon iqtisodiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni rivojlanishiga xos ko‘rsatkichlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqot ishning predmeti bo‘lib, iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqot ishining maqsadi. Ishning maqsadi jahon iqtisodiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar rivojlanish tendentsiyalarini tadqiq etish hamda shu asosda investitsiyalardan samarali foydalanish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy-huquqiy va umumnazariy asoslarini tadqiq qilish;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning milliy iqtisodiyot uchun ahamiyatini yoritish;
- jahon iqtisodiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning tarkibi va rivojlanish dinamikasini o‘rganish;
- O‘zbekistonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy-moliyaviy shart-sharoitlarini baholash;
- milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlashda xorijiy investitsiyalarning tutgan o‘rnini tadqiq etish;
- milliy iqtisodiyotning barqaror o‘lishini ta‘minlashda xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirish yo‘llarini yoritish.

Ilmiy yangiligi:

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning umumnazariy asoslari yoritilgan hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning milliy iqtisodiyot uchun ahamiyati ochib berilgan;
- investitsiya dasturlari sifatini oshirish va xorijiy investitsiyalarni davlat

tomonidan boshqarishda davlat organlarining o'zaro munosabatlari mexanizmi takomillashtirilgan;

– mintaqaviy xususiyatlar va nisbiy ustunliklarni aniqlash asosida joylardagi ishlab chiqarish salohiyatidan kelib chiqib, xorijiy investitsiyalarni hududlarning alohida istiqbolli tarmoqlariga oqilona jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan;

– O'zbekistonda investitsion muhitni yaxshilash va uning jozibadorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish istiqbolda ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishiga hamda milliy iqtisodiyot barqarorligining oshishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Xorijiy investitsiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish va ulardan samarali foydalanish muammolari xorijlik iqtisodchilar L.Alfaro, N.Bayraktar, E.Gribova, K.Guadalupe, P.Jadxav, X.Degregorio, D.Danning, Yu.Zaytsev, D.Kim, K.Kojima, R.Lipsey, R.Narula, T.Ozava, E.Popov, S.Saksonova, L.Sanjaya, S.Xaymer, F.Xiolan, K.Xed, Y.Xuang va boshqa olimlar tadqiqotlarida o'z aksini topgan⁴.

Shuningdek, bu boradagi mavjud muammolarning o'ziga xos ilmiy va amaliy jihatlari respublikamizning bir qancha iqtisodchi-olimlari, jumladan, A.Bekmuradov., B.Berkinov, A.Vaxobov, A.Isadjanov, N.Karimov, N.Kuzieva, N.Maxmudov, J.Muinov, U.Nadirxonov, N.Nedelkina, N.Oblomurodov, D.Rustamova, T.Sapaev, A.Sobirov, A.Sodiqov, B.Tagayev, F.Umarov, X.Xalilov,

⁴ Alfaro L. "Gains from Foreign Direct Investment: Macro and Micro Approaches." World Bank Economic Review (2016): 1–14.; Bayraktar N. Foreign Direct Investment and Investment Climate // Procedia Economics and Finance. 2013. Vol. 5. P. 83–92.; Грибова Е.В. «Инвестиционный климат в России: приток и отток иностранного капитала»// Экономический анализ: теория и практика, №12(315), 2013. С.27-37.; C. Guadalupe, J.Rivera, G.Castro Foreign direct investment in Mexico Determinants and its effect on income inequality// Contaduría y Administración. 2013. Vol. 58. № 4. P. 201–222.; P. Jadhav Determinants of foreign direct investment in BRICS economies: Analysis of economic, institutional and political factor // Procedia – Social and Behavioral Sciences. 2012. Vol. 37. P. 5-14.; De Gregorio J. «The role of foreign direct investment and natural resources in economic development». 2003. Working Paper No 196. Central Bank of Chile, Santiago.; Dunning, J.H. The Eclectic (OLI) Paradigm of International production: Past, Present and Future, International Journal of the Economics of Business, 8(2), 2001, pp. 173-190; Зайцев Ю.К. «Диагностика притока прямых иностранных инвестиций в Россию: от теории к практике» //Экономический анализ: теория и практика, №19(418), 2015. С.16-25.; Kim, D. D. and J. Seo 'Does FDI Inflow Crowd out Domestic Investment in Korea?'// Journal of Economic Studies, 2003. 30 (6): 605-22.; Kojima K. The flying gees model of Asian economic development: Origin, theoretical extensions, and regional policy implication// Journal of Asian Economics, 11(4): 375-401.; ва бошқалар.

I.Xanova, N.Xaydarov, N.Xakimov, J.Xoltaev, N.Xashimova, S.Chepel, Sh.Yuldashev va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan⁵.

Mavjud tadqiqotlarda xorijiy investitsiyalar samaradorligi bo'yicha umumiy nazariy va metodologik natijalar olingan bo'lsada, ularda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini baholash nazariyalari va usullari, iqtisodiy tarmoq va hududlar kesimi bo'yicha xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish masalalarining hozirgi holati makroiqtisodiy nuqtai nazardan kompleks yoritilmagan.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqot ishida guruhlash, qiyosiy tahlil, tarkibiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va metodologik asoslarning mamlakat investitsiya siyosatida xorijiy investitsiyalarning samaradorligini baholash va ularni jalb qilish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy apparatni boyitishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati davlat investitsiya dasturlaridagi xorijiy investitsiya ishtirokidagi loyihalarni sifatli ishlab chiqish, mamlakat nisbiy ustunliklarini hisobga olgan holda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mintaqaviy dasturlarini ishlab chiqishni takomillashtirish, hududiy rivojlantirish dasturlari sifatini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot

⁵ Бекмурадов А.Ш. Глобальные тренды на мировых финансовых рынках и проблемы привлечения технологических инвестиций для реализации промышленной политики Узбекистана// Молия ва банк иши электрон илмий журнали. №2, январь, 2016 й.; Berkinov B.B. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar samaradorligi// Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. №5, 2015 y.; Вахобов А.В., Г.Х.Разикова, Ш.Х.Хаджибакиев Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики. Т.: «Молия» 2011 г. -124 с.; Исаджанов А.А. Узбекистан: потенциал инвестиционного сотрудничества// Иностранные инвестиции в Республике Узбекистан. №1, 2008 й.; Karimov N.G'. Iqtisodiy integrallashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. – Т.: Fan va texnologiya, 2007. -214 b.; Махмудов Н. М. Инвестиции – ресурсный двигатель экономики// Иностранные инвестиции в Республике Узбекистан. – Ташкент, № 2, 2008 й.; Муинов Ж, Федяшева Г. Прогнозирование инвестиционных процессов и механизмы дальнейшего улучшения инвестиционного климата // Отчет о научно-исследовательской работы за 2015-2017 гг., ИПМИ, 2017 г.; Садыков А.А. Основы регионального развития: теория, методология, практика//Монография. Ташкент. «IQTISOD-MOLIYA», 2005. -280 с.; Xaydarov N.X. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar imkoniyatlari//Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, №1, 2011 y.; Хашимова Н.А. Агрегатный анализ динамики структуры инвестиционного потенциала Узбекистана// Экономический вестник Узбекистана. №5. 2016 г.; Чепель С.В. Системный анализ и моделирование перспектив устойчивого развития национальной экономики Узбекистана// Диссертация. Ташкент: IFMR, 2014. -с.116.; Юлдашев Ш.Г., «Иностранные инвестиции как фактор экономического роста и либерализации национального воспроизводства Республики Узбекистан», диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук, 2001 г. ва бошқалар.

ishida taklif etilgan amaliy tavsiyalar mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish va iqtisodiyotning o'zlashtirish salohiyatini oshirish omillarini aniqlashda ham o'z o'rniga ega.

Ish tuzilmasining tavsifi. Magistrlik dissertatsiyasi tarkiban kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida - mavzuning dolzarbligi, ishning maqsadi va vazifalari, predmeti va obyekti, ilmiy yangiliklari, nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan.

Tadqiqot ishining birinchi bobida, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy-huquqiy va umumnazariy asoslari tadqiq etilgan. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning milliy iqtisodiyot uchun ahamiyati hamda xorijiy investitsiyalarni boshqarishning xalqaro amaliyoti yoritilgan.

Ishning ikkinchi bobida, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning amaldagi holati tahlili amalga oshirilgan.

Tadqiqotning uchinchi bobida esa, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirish yo'llari yoritilgan.

Xulosa qismida, tadqiqot jarayonida o'rganilgan ma'lumotlar asosida erishilgan ilmiy natijalar umumlashtirilgan holda bayon etilgan.

I BOB. TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING UMUMNAZARIY ASOSLARI

1.1. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning tasniflanishi va ularga oid nazariyalar

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya bu transchegaraviy investitsiyalarning shunday turiki, unda bir iqtisodiyotdagi rezident boshqa iqtisodiyotdagi rezident korxonaga investitsiya kiritishi uning boshqaruvini nazorat qilish yoki unga salmoqli ta'sir ko'rsatish imkoniyatini beradi. Bunda boshqaruvni nazorat qilish uchun korxonaning kamida 50 foiz ovoz berish huquqi, unga salmoqli ta'sir ko'rsatish uchun esa 10-50 foiz ovoz berish huquqi talab qilinadi. BMTning Savdo va rivojlanish tashkilotining 1999 yildagi Jahon investitsiya hisobotida aytilishicha esa TTXI bu bir iqtisodiyotdagi rezident birlikning (xorijiy investor yoki bosh korxona) boshqa iqtisodiyotdagi rezident korxonaga uzoq muddatli aloqa, davomli manfaat va nazoratni ko'zlab kiritgan investitsiyasidir.

TTXIni investor mamlakat nuqtai nazardan gorizontal, vertikal va konglomerativ turlarga ajratish mumkin⁶. Gorizontal TTXI xorijiy mamlakatda o'z mamlakatida ishlab chiqaradigan mahsulotlar turi bilan bir xil mahsulot ishlab chiqarish uchun yo'naltirilgan investitsiyalardir. Shu sababli gorizontal TTXI uchun mahsulot differentsiatsiyasi bozor tuzilmasining muhim elementi sifatida qaraladi.

Boshqacha aytganda, gorizontal TTXI monopolistik yoki oligopolistik ustunliklardan yanada to'liqroq foydalanish uchun amalga oshiriladi. Bu ayniqsa, monopolistik ustunliklardan mahalliy bozorlarda foydalanish monopoliyaga qarshi qonunlarga zid kelib qolgan holatlarda ayni muddaodir. Vertikal TTXI esa chet eldagi xom ashyo materiallardan foydalanish yoki distribyuterlik savdo shoxobchalari orqali iste'molchilarga yaqinlashish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda turli mamlakatlar ishlab chiqarishning turli bosqichlari yoki omillari bilan

⁶ Caves, R.E. International Corporations: The Industrial Economics of Foreign Investment, *Economica*, Vol. 38, 1-27.

qatnashadi. Masalan, uzoq vaqt mobaynida AQSh avtomobil ishlab chiqaruvchilari Yaponiya avtomobil bozoriga kirishda qiyinchiliklarga duch kelganlar. Chunki Yaponiyalik avtomobil dillerlari o'z ishlab chiqaruvchilari bilan yaqin biznes aloqalariga kirishgan va bu xorijiy avtomobillarga nisbatan qarshilikni tug'dirayotgan edi. AQSh avtomobil dillerlari bu to'siqni engib o'tish uchun Yaponiyada o'z mahsulotlarini sotishda o'z dillerlik tarmoqlarini ochishga kirishganlar. Konglomerativ TTXI esa o'z ichiga gorizontal va vertikal TTXI qamrab oladi.

Retsipient mamlakat nuqtai nazardan esa TTXIni import o'rini bosuvchi, eksportni rag'batlantiruvchi va davlat tashabbusi ostidagi turlarga ajratish mumkin. Import o'rini bosuvchi TTXI muayyan mamlakatda ushbu mamlakat avval import qilgan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun kiritilgan investitsiyalar hisoblanadi va bu mazkur mamlakatning o'sha mahsulot bo'yicha importini qisqarishiga va investor mamlakatning esa eksportini kamayishiga olib keladi. Bu turdagi TTXIni rag'batlantiruvchi asosiy omillar qabul qiluvchi mamlakat bozori hajmining kattaligi, transportatsiya harajatlari va savdo to'siqlarining mavjudligidir. Eksportni rag'batlantiruvchi TTXI esa retsipient mamlakatning investor mamlakat va TMK filiallari joylashgan mamlakatlarga xom ashyo materiallar va oraliq mahsulotlar eksportini rag'batlantiradi. Chunki bu turdagi TTXI maqsadi ishlab chiqarish uchun yangi manbalar va omillar izlab topishdir. Davlat tashabbusi ostidagi TTXI turiga hukumat to'lov balansidagi defitsitni yo'qotish maqsadida xorijiy investorlarga turli imtiyozlar taklif qilish jarayonida jalb qilingan investitsiyalar kiradi.

TTXIni ekspansiyaviy (expansionary "egallovchi") va himoyaviy (defensive) turlarga ajratish mumkin. Chen va Kuning fikriga ko'ra ekspansiyaviy TTXI retsipient mamlakatda investor firma ustunliklaridan foydalanishni ko'zda tutadi⁷. Bunday turdagi TTXI investor korxonaning ichki va tashqi savdosining o'sishiga yordam beradi. Himoyaviy TTXI esa qabul qiluvchi mamlakatda mavjud arzon

⁷ Tain-Jy Chen and Ying-Hua Ku. The effect of foreign direct investment on firm growth: the case of Taiwan's manufacturers. Japan and the World Economy, 2014, vol. 12, issue 2, 153-172.

ishchi kuchidan foydalanib ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishni maqsad qilib qo'yadi. Chen empirik tadqiqotlariga ko'ra ekspansiyaviy TTXIga eng ko'p ta'sir qiladigan omillar firma hajmi, ilmiy-texnik salohiyati, rentabellik va texnologiya kabilar hisoblanadi. Himoyaviy TTXIga esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish bilan bog'liq motivlar salmoqli ta'sir ko'rsatadi⁸.

TTXI uch xil shaklga ega bo'lishi mumkin: grinfield (noldan boshlanuvchi) investitsiyalar, transchegaraviy birlashish va yutib yuborishlar (M&As) va qo'shma korxonalar. Grinfield investitsiyalar investor firma retsipient mamlakat hududida yangi ishlab chiqarish faoliyatini boshlash bilan amalga oshiriladi. Bu esa investitsiya qabul qiluvchi mamlakat uchun yangi ish o'rinlarini yaratishi va ishlab chiqarishda yangi qo'shilgan qiymatni shakllantirgani sababli ma'qul hisoblanadi. Agar xorijiy investor yangi korxona ochmasdan mavjud korxonani sotib olib undagi ishlab chiqarish texnika va texnologiyasini, ishchilarini va butun jarayonni deyarli butunlay yangilasa bunday TTXI "braunfield investitsiyalar" deyiladi. Bunday TTXI turi asosan o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida ko'p kuzatilgan⁹. TTXIning korxonalarning xalqaro darajada o'zaro birlashishi va yutib yuborishi (M&As) natijasida kelib chiqadi. TTXIning bu turi xorijiy investorlar uchun grinfield investitsiyalarga qaraganda bir qancha ustunliklarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, muvaffaqiyatsizlikka uchragan investitsiya loyihalari odatda investor uchun arzonga tushadi va investorning bozorga qisqa muddatda kirib olishini ta'minlaydi.

Ko'pchilik rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida TTXI asosan resurs izlovchi xarakterga ega bo'ladi. Bu turdagi investitsiyalar uchun rag'batlantiruvchi omillar sifatida retsipient mamlakatlarning xom-ashyo va mehnat resurslariga boyligini keltirish mumkin. Ushbu mamlakatlarda neft, gaz, mineral moddalar, metallar kabi tabiiy boyliklarning ko'pligi va arzonligi hamda arzon ishchi kuchi mavjudligi resurs izlovchi investitsiyalar jalb qilishni

⁸ Xiaoyang Chen, Maggie; Lin, Chuanhao. Foreign Investment across the Belt and Road : Patterns, Determinants, and Effects. Policy Research Working Paper. <http://documents.worldbank.org/curated/en/394671539175518256/Foreign-Investment-across-the-Belt-and-Road-Patterns-Determinants-and-Effects>.

⁹ Meyer, Klaus E., 2016. Direct Investment in Economies in Transition. Edward Elgar, Aldershot.

rag'batlantiradi. Bunday turdagi investitsiyalash natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar esa asosan eksport qilinadi.

Bozor izlovchi TTXI esa muayyan mamlakat yoki mintaqa iste'mol bozorlarini egallashni maqsad qilib qo'yadi. Bu turdagi investitsiyalarni kirituvchi korxonalar odatda o'z mahsulotlariga bo'lgan joriy yoki kelgusi talabga javoban uy xo'jaliklari uchun zarur iste'mol va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Bozor izlovchi TTXI ko'pincha himoyalovchi xarakterga ega bo'lib, korxonalar tomonidan qabul qiluvchi mamlakatdagi import to'siqlarini aylanib o'tish maqsadida amalga oshiriladi. Bu turdagi investitsiyalar olib kiruvchi investor uchun retsipient mamlakatdagi liberal savdo siyosati muhim ahamiyat kasb etadi.

Samara izlovchi TTXI xarajatlar past bo'lgan retsipient mamlakatdagi arzonchilikdan foydalanish uchun amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi esa investor korxonalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, kredit karta kompaniyasining AQShlik mijozlar uchun Hindistonda chaqiruv (qo'ng'iroq qilish) markazini ochishi ishchilar uchun xarajatlarni kamaytiradi va samara izlovchi TTXI sifatida e'tirof etiladi.

Strategik vosita izlovchi TTXI qachonki korxonalar o'zlarining uzoq muddatli strategik maqsadlarini amalga oshirish uchun xorijiy mamlakatga investitsiya kiritganda yuzaga keladi. Masalan, o'zaro manfaatli ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlarini hamkorlikda amalga oshirish uchun transmilliy korxona chet el mamlakatidagi boshqa korxona bilan birlashma shakllantirishi mumkin. TTXIni ularni rag'batlantiruvchi omillar bo'yicha yuqoridagidek resurs, bozor, samara va strategik vosita izlovchi turlarga bo'linishi J.Danning nazariyalariga asoslanadi¹⁰.

Endi esa TTXI bo'yicha asosiy nazariyalar kelib chiqishiga e'tiborni qaratamiz. R.Vernon Xalqaro tovar ishlab chiqarish nazariyasida TTXI va xalqaro savdo o'rtasidagi munosabat, tovarning hayotiy tsikli kabi muammolarga e'tiborni

¹⁰ Dunning, John, 1981. International Production and the Multinational Enterprise. Allen & Unwin, London.

qaratadi¹¹. Ushbu nazariyada muallif xalqaro savdo, ishlab chiqarish va butun tarmoqlarning ko‘chish sabablari kabi xalqaro iqtisodiy munosabatlar elementlarini marketing nazariyasi (tovarning hayotiy tsikli egri chizig‘i) bilan birlashtiradi.

Transmilliy kompaniyalar va sust raqobat nazariyasi doirasida esa kanadalik iqtisodchi Stiven Xaymer o‘z tadqiqotlarida transmilliy kompaniyalar (TMK) raqobatdoshligi va ularning xalqaro faoliyatini tahlil qilgan¹². Xorijiy investorlar uchun chet elga ishlab chiqarish investitsiyalarini kiritish ichki bozorda ishlab chiqarishni tashkil etishdan ko‘ra ko‘proq risklar va xarajatlarni keltirib chiqaradi. Ammo ular xorijiy bozorlardagi raqobatning nomukammalligi va sustligidan foydalanadilar.

F.T.Nikkerbokker Oligopoliya va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar nazariyasida oligopolistik tuzilmalar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘rtasidagi munosabatni tadqiq qildi¹³. Uning 20 yil mobaynida 187 ta Amerika kompaniyalarining xalqaro faoliyatini o‘rganish natijasi shuni ko‘rsatdiki, oligopolistik tarmoqlarda milliy raqobatchilar beixtiyor bozor etakchilari orqasidan ergashadilar. Bu ergashish strategiyasi 45 foiz holatda birinchi investitsiyalash vaqtidan boshlab 3 yil davomida kuzatilgan, 75 foiz holatda esa 7 yil davomida kuzatilgan. X.Grem ushbu modelni Evropa transmilliy kompaniyalari investitsiya faoliyati xarakterini tushuntirish orqali yanada takomillashtirdi. Uning aniqlashicha, ushbu korporatsiyalarning maqsadi AQShdagi o‘zlarining evropalik raqobatchilari bilan kurashish emas, balki Evropadagi Amerika kompaniyalari strategiyalariga qarshilik ko‘rsatish bo‘lgan.

P.Bakkli va M.Kasson Internalizatsiya nazariyasida internalizatsiya, integratsiya va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar muammolarini tadqiq qilganlar¹⁴. Internalizatsiya (ing.tilida internalization – kompaniya ichida barcha

¹¹ Vernon R. International investment and international trade in the product cycle // Quarterly Journal of Economics. 2016. № 80. P. 190-207.

¹² Stephen Hymer, the Multinational Firm and Multinational Corporate Capital. https://www.researchgate.net/publication/267547912_Stephen_Hymer_the_Multinational_Firm_and_'Multinational_Corporate_Capital'

¹³ Rugman A., Verbeke A. A perspective on regional and global strategies of multinational enterprises // Journal of International Business Studies. 2014. V. 35. № 1. P. 3-18

¹⁴ Buckley P., Casson M. The optimum timing of foreign investment // Economic Journal. 1981. № 91. P. 75-87.

texnologiya va nou-xaularning birlashishi) nazariyasi transmilliy kompaniyalar rivojlanishi va ularning TTXIni amalga oshirish motivlarini o'rganadi. Bu nazariyaga ko'ra kompaniyalar yaxlit ichki tuzilmaga ega bo'lgan sharoitda o'z faoliyatlarini kengaytira oladilar. Shuningdek, ushbu nazariyada undan oldingi nazariyalar (xususan, Xaymer, Kindlberger) asosiy e'tiborni ishlab chiqarish funktsiyasiga qaratganligi va biznesni xalqaro tashkillashtirish, marketing va boshqaruv resurslari, moliyaviy menejment, etakchilik qobiliyati, inson resurslarini rivojlantirish kabi boshqa muhim afzalliklar e'tibordan chetda qolganligi ta'kidlanadi.

K.Akamatsu "Uchayotgan g'ozlar" paradigmasiga asos solib, iqtisodiy rivojlanish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'zaro ta'sirini tadqiq qildi¹⁵. Bu iqtisodiy rivojlanishning umumlashgan nazariyasi bo'lib, unga ko'ra tarmoq rivojlanishining uchta bosqichi mavjud. Birinchi bosqichda iqtisodiyotga mahsulotlar xorijiy ishlab chiqaruvchilardan import orqali kirib keladi. Ikkinchi bosqichda esa o'sib borayotgan milliy talabni qondirish uchun yangi mahalliy ishlab chiqarish yuzaga keladi. Uchinchi bosqichda ortiqcha ishlab chiqarilgan mahsulot yangi chet el bozorlariga eksport qilinadi. Bu nazariya Yaponiyadagi tekstil sanoatini kuzatish asosida shakllantirilgan. Import, mahalliy ishlab chiqarish va eksportning ketma-ketlik grafik ko'rinishda paydo bo'lishi yovvoyi g'ozlar galasining shakllanishiga o'xshaydi. Bunday modellar tekstil sanoati (ip-gazlama ishlab chiqarish), kechroq sanoat jihozlari tarmog'ida (yigiruv mashinalari) kuzatilgan.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va millatlarning raqobat ustunliklari nazariyasida M.Porter to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya qabul qiluvchi mamlakatlar raqobatdoshligini tahlil qilib TTXI va raqobatdoshlik o'rtasidagi bog'lanishni o'rgandi¹⁶. U o'nta sanoati rivojlangan mamlakatlardagi ularning eksportida asosiy o'rin egallovchi yuzdan ortiq tarmoqlar raqobatdoshligini tadqiq

¹⁵ Akamatsu, Kaname (1961), "A Theory of Unbalanced Growth in the World Economy," *Welwirtschaftliches Archiv* 86 (2), 192-215.

¹⁶ Портер М. Международная конкуренция / М. Портер. – М.: Альпина Паблишер, 2019. - 947 с.

qildi. Muallif transmilliy kompaniyalar va retsipient mamlakatlarning raqobat ustunliklari o'rtasidagi dinamik ta'sirlashuvni ko'rsatadi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kapitalni chetga chiqarishni asoslab beruvchi yangi ilmiy nazariyalar paydo bo'ldi. Ushbu nazariyalar quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi.

- kapitalni chetga chiqarishning zamonaviy sabablarini asoslash. Ushbu turdagi tahlillar mikroiqtisodiy qonuniyatlar asosida amalga oshirildi;

- jahon kapital oqimlarinyang o'zaro bog'liqliklarini umumlashtirish. Ushbu yo'nalish jahon bozorining globallashuv sharoitidagi kapital oqimining rivojlanishi qonuniyatlariga asoslanadi.

XX asrning 70-yillarida sanoatni tashkil etish nazariyasi doirasida olib borilgan tadqiqotlar amerika korporatsiyalari tomonidan amalga oshirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning (TTXI) afzalliklarini aniqlash va baholashga asosiy e'tibor qaratdilar. Menejment texnikasi, innovatsiyalarga bo'lgan qobiliyat va mahsulotlar differentsiyasi kabi omillar transmilliy korporatsiyalarning raqobat afzalliklariga kiritildi.

Ushbu nazariya bilan bir vaqtning o'zida kompaniyalarning xorijdagi faolligining moliyaviy jixatlariga qiziqish uyg'ondi. Natijada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini firmalarning tashkiliy xususiyatlari orqali tushuntirishga asoslangan yangi nazariy yo'nalish paydo bo'ldi.

Dastlab, kapitalni chetga chiqarishda korloratsiyaning raqobat afzalliklarini asoslashga qaratilgan nazariyalarni ko'rib chiqamiz. Ushbu afzalliklarni retsipient-mamlakatda yaqqol ko'rish mumkin. Bu turdagi tadqiqotlar mantiqan monopolistik raqobatga ega bozor qoidalariga asoslanadi. Kimning tovari raqib mahsulotiga nisbatan biron-bir afzallikka ega bo'lsa, o'sha g'olib chiqadi. Ushbu yo'nalishdagi nazariyalar ichidan quyidagilarni alohida ajratish mumkin: mahsulotning hayotiylik tsikli nazariyasi, M.Porterning raqobatbardoshlik nazariyasi va J.Danningning eklektik paradigmasi.


Mahsulotning hayotiylik tsikli nazariyasi frantsuz olimi R.Vernon tomonidan 1966 yilda ishlab chiqilgan. U kapitalni chetga chiqarishni mahsulotning hayotiylik

tsikli qonuniyatlari bilan bog'laydi. Mahsulotning bozordagi hayoti bir nechta bosqichlardan o'tadi:

- 1) mahsulot bozorga olib kiriladi;
- 2) mahsulotni sotish hajmining ortishi va sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanishi;
- 3) mahsulot ommaviy tarzda ishlab chiqariladi;
- 4) bozor mahsulotga to'yinadi va sotish hajmi pasayadi. Shunda mahsulot ishlab chiqarish to'xtatiladi.

Mahsulotni eksport qilish va ishlab chiqarishni xorijga ko'chirish ehtiyoji uchinchi va to'rtinchi bosqichlar oralig'ida vujudga keladi. Agar tovar va kapital muvaffaqiyatli eksport qilinsa, firma mahsulotning hayotiylik tsiklini qulay tarzda uzaytirish imkonini qo'lga kiritadi. Budavrd yuqori, barqaror mahsuldorlik ta'minlanadi va daromadlilik oshadi. Mahsulotning raqobatbardoshligi hayotiylik tsiklining etuklik bosqichida ortadi va ushbu bosqichda jahon bozorida mustahkam o'rin egallaydi.

Raqobatbardoshlik nazariyasi 1990 yilda M.Porter tomonidan ishlab chiqilgan. M.Porter raqobatbardoshlik nazariyasini jahonning sakkiz mamlakatidagi yuzdan ortiq tarmoqlarni tahlil qilish asosida yaratgan. M.Porter ushbu taxlillar asosida transmilliy korporatsiyalarning jahon bozorlaridagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillarni quyidagi guruhlariga ajratadi:



1.1-rasm. M.Porterning raqobatbardoshlik omillari¹⁷

¹⁷ Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. – T.: «Moliya», 2010. – B. 40.

M.Porter ushbu omillar sintezini «raqobat afzalliklari olmosi» deb ataydi va ular kapitalni chetga chiqarishning muvaffaqiyatini kafolatlashini nazarda tutadi. Qo'shimcha omillar sifatida esa davlatning oqilona invsstitsiya siyosati va «omadli vaziyatlari»ni keltiradi.

M.Porterning fikricha, bozorni o'zlashtirishda raqobat faqat foydalanilayotgan texnologiyalar bilan bog'liq bo'lmasdan, balki transmilliy korporatsiyalar tomonidan qo'llanilayotgan strategiyalarda ham namoyon bo'ladi.

M.Porter, kapitalni chetga chiqarayotgan mamlakat, agar shu kapital retsipient-mamlakatdagi turdosh ishlab chiqarishi bilan kooperatsiyalashsa, barqaror rivojlanishi mumkin, deb ta'kidlaydi. Mahalliy tovar etkazib beruvchilar mahsulot tannarxini arzonlashtiradi, bojxona to'lovlarini kamaytiradi va ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartiradi.

Eklektik paradigma ingliz olimi J.Danningga (1981) tegishli bo'lib, u transmilliy korporatsiyalarning jahon kapital bozorlariga kirib borish sabablarini umumlashtiradi. Shuning uchun ushbu nazariya eklektik paradigma nomini olgan. J.Danning iqtisodiy nazariyada to'plangan fikrlarni oddiy mexanik tarzda umumlashtirmasdan xo'jalik amaliyotida sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan omillarni tanlab oldi. Eklektik paradigma nazariyasida quyidagi uchta holatga izoh berilgan:

- Qanday hollarda tovardan ko'ra kapitalni chetga chiqarish foydaliroq?
- Qachon milliy resurslardan ko'ra boshqa mamlakatlar resurslaridan foydalanish foydaliroq?
- Qachon kompaniya xorijda o'z vatanida mumkin bo'lmagan monopolistik foydani qo'lga kiritishi mumkin?

J.Danning so'nggi muammoni hal qilish uchun kompaniyaning jahon kapital bozorida namoyish qilishi mumkin bo'lgan afzalliklarini tasniflab berdi. Ushbu afzalliklar quyidagi uchta yirik guruhga ajratiladi;

O — investor kompaniyalarning ichki salohiyatiga bog'liq bo'lgan afzalliklar. Ularga kompaniyalar tomonidan foydalaniladigan ishlab chiqarish omillarining afzalliklari, kompaniyaning tashkiliy tuzilish xususiyatlari va qo'llayotgan strategiyasi kabi afzalliklar kiradi;

I — baynalminallashuv jarayonida o‘z tovarlari va ishlab chiqarish imkoniyatlarini begona bozorlarga yo‘naltirishda qo‘llaniladigan filiallar tarmog‘idan foydalanish afzalliklari;

L — retsipient-mamlakat takdim etadigan afzalliklar (imtiyozli soliqqa tortish tizimi, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda davlatning ishtiroki, infratuzilma xizmatlarining ko‘rsatilishi va boshqalar).

Eklektik paradigma nazariyasiga ko‘ra, retsipient-mamlakatlar xorijiy investitsiyalarni jalb etishda faqat resurslarning arzonligiga tayanmasliklari lozim. Milliy iqtisodiyot uchun zarur xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ushbu omilning o‘zi etarli emas. Shuning uchun asosiy e‘tibor qulay investitsiya muhitini yaratishga qaratilishi kerak.

1.1-jadval

OIL –afzalliklar va tashqi iqtisodiy ekspansiya strategiyasini tanlash¹⁸

Afzalliklar	Litsenziyalar soni	Eksport	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar
O	X	X	X
I	O	X	X
L	O	O	X
Bu erda: X – yuz beradi, O – yuz bermaydi.			

J.Danning kontseptsiyasi nemis olimi I.Shten (1989) tomonidan to‘ldirildi. U J.Danning tomonidan ilgari surilgan afzalliklar (O, I, L) asosida kompaniya qanday qilib ekspansiya strategiyasini tanlashini kursatib berishga xarakag qildi. Ekspantsiya strategiyasini tanlash bilan bog‘liq muqobil varyaytlar uchta: litsenziyalarni sotish, tovar eksporti va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar. I.Shtenning ta’kidlashicha, tashqi iqtisodiy ekspansiya yo‘liga o‘tgan transmilliy korporatsiya risk darajasi past bo‘lgan yo‘lni izlaydi. Agar retsipient-mamlakat L — afzalliklarni takdim etsa, transmilliy korporatsiyalar ushbu hududga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni kiritishni afzal deb biladi.

1.1-jadval ma’lumotlari ko‘rsatishicha, eng yaxshi ishlab chiqarish omillari, yuqori texnologiyalar va strategiyaga ega bo‘lgan kompaniya tashqi iktisodiy ekspansiyani xoxlagan usulda amalga oshirish imkoniga ega. Agar kompaniyada

¹⁸ Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. – T.: «Moliya», 2010. – B. 42.

yangi bozorlarga chiqish filiallari mavjud bo'lib, texnologiyalar bo'yicha afzalliklarga ega bo'lmasa, u holda kompaniya o'zining litsenziya faoliyatini rivojlantirmaydi. Chunki kompaniyada bunday strategiya uchun resurslar mavjud emas. Shuningdek, agar retsipient-mamlakat xorijiy investitsiyalar uchun qulayliklar taqdim etsa, kompaniya iqtisodiy integratsiyaning aynan shu yo'nalishini tanlaydi.

Zamonaviy nazariyalar kapitalni chetga chiqarishning sabablaridan tashqari, ularning yo'nalishlarini ham asoslab beradi. Ular ushbu jarayonning kapitalni chetga chiqaruvchi va qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini prognozlashtirishga harakat qiladi.

Ushbu nazariy yo'nalishning xususiyatli jihati to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni eksport qilish yo'liga o'tgan iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlarini ochib berishga urinishdan iborat. Tadqiqotlar ochiq iqtisodiyotni makroiqtisodiy darajada taxlil qilish doirasida olib boriladi. Ushbu yo'nalishda «uchayotgan g'ozlar» va investitsion rivojlanish yo'li nazariyalari qiziqarlidir.

Investitsion rivojlanish yo'li nazariyasi (1994) J.Danning va Narulalarga tegishlidir. Ushbu rivojlanish yo'li besh bosqichdan iborat va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liqligini tavsiflab beradi. Mehnat sig'imkorligi yuqori, past texnologiyali ishlab chiqarishga ega va qazib chiqarish sanoati ustun bo'lgan mamlakatlar, odatda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni import qiluvchi mamlakatlar hisoblanishadi (birinchi bosqich). Ushbu mamlakatlar kapital sig'imkorligi yuqori ishlab chiqarish va ilmiy-texnika taraqqiyotini rivojlantirishga harakat qilishlari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar importining o'sishiga olib keladi (ikkinchi bosqich). Agar xorijiy kapital importi rag'batlantiruvchi va eksportga yo'naltirilgan siyosat bilan qo'llab-quvvatlansa, mamlakatning o'zi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni eksport qila boshlaydi (uchinchi va qisman ikkinchi bosqichlar). To'rtinchi bosqich rivojlangan mamlakatlarga xos bulib, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar eksporti ularning importidan yuqori bo'ladi. Beshinchi bosqichda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar eksporga va importi bir-birini muvozanatlab turadi va yuqori rivojlangan mamlakatlarga xosdir. Ushbu mamlakatlar barcha afzalliklarga (O, I, L)

ega bo‘lib, jahonda texnologik va kapital sig‘imkorligi yuqori tarmoqlarda etakchilik qilishadi.

Turli mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish yo‘lida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ishtiroki quyidagi jadvalda keltirilgan.

1.2-jadval.

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish yo‘li bo‘yicha guruhlanishi¹⁹

1-bosqich Rossiya, Bolgariya davlatlari uchun xosdir. Vetnam to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni barqaror sur‘atlarda jalb etgani holda, ushbu bosqichni tark eta boshladi. Bu guruhdagi mamlakatlar xorijiy investitsiyalarni salmoqli, katta hajmda jalb eta olmayaptilar. Shu bilan birga xorijiy investitsiyalarga bo‘lgan ehtiyoj yuqoriligicha qolmoqda.
2-bosqich Vengriya, Polsha, Indoneziya, Hindiston davlatlariga xos bo‘lib, ular xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishmoqda. Xorijiy investitsiyalar yordamida iqtisodiyot tarkibi o‘zgartirilmoqda
3-bosqichni Braziliya, Xitoy, Meksika davlatlari o‘zlashtirgan. Ushbu mamlakatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni eksport qila boshladilar. Rossiyada MDH mamlakatlariing kapital bozorlariga kirib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda.
4-bosqich rivojlangan mamlakatlarga xosdir: Frantsiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya, AQSh.
5-bosqichni Kanada o‘zlashtirgan

Iqtisodiy o‘shish yo‘llari nazariyasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan oqilona boshqarilganda iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta‘sir o‘tkazishi ham mumkin:

- milliy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan kuchli raqobatchining kirib kelishi;
- korxonani keyinchalik muqobil ishlab chiqarishni tugatish maqsadida yopib yuborish;
- atrof-muhitning ifloslanishi, chunki xorijiy kapital o‘z vatanida taqiqlangan zararli ishlab chiqarishni chetga chiqarishga harakat qiladi;
- eksportyor mamlakatda raqobatbardosh bo‘lmay qolgan kapitalning kirib kelishi;
- erkin tadbirkorlik muhitiga zarar etkazuvchi monopol bozorning o‘rnatilish xavfi;

¹⁹ Iqtisodiy adabiyotlarni o‘rganish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

– adolatsiz raqobat muhitida ishlovchi sinalmagan kapitalni qabul qilish ehtimoli.

1.2. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning milliy iqtisodiyot uchun ahamiyati

Xalqaro kompaniyalarning paydo bo‘lishiga qadar barcha xorijiy investitsiyalar portfel investitsiyalar shaklida bo‘lgan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar XX asrning 20-yillaridan boshlab rivojlana boshladi, ammo bu yillarda portfel investitsiyalar hajmi to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmiga nisbatan ikki barobar ko‘p edi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning aniq moliya-sanoat guruhlarini, xalqaro firmalar, transmilliy korporatsiyalar faoliyati orqali amalga oshirilishi ularga muayyan ustunlik beradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni boshqarish portfel investitsiyalarga qaraganda oson bo‘lib, ularning «o‘yin qoidalari» aniqroqdir. Ushbu holat bozor iqtisodiyotini tartibga solishda muhim ahamiyatga ega.

Tahliliy ma’lumotlarga qaraganda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi bir necha o‘n yilliklar mobaynida jadal sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. 1914 yildan ikkinchi jahon urushi oxirigacha bo‘lgan muddatda xorijiy investitsiyalar hajmi 30% ga ko‘paygan holda, keyingi 10 yil mobaynida ikki barobar o‘sgan. XX asrning 60-yillarining o‘rtalaridan boshlab keyingi 25 yil mobaynida esa ushbu ko‘rsatkich 4 marotabaga oshgan.

XX asrning 1990 yillarida jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimining hajmi 449 mlrd. dollarni tashkil etgani holda, ushbu ko‘rsatkich 2017 yilga kelib 1,4 trln. dollarga etdi. Mazkur holat mamlakatlar iqtisodiyotiga, shuningdek, xalqaro kapital oqimiga bo‘lgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligi bilan izohlanadi.

XXI asr boshlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jahonda rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonining harakatlantiruvchi kuchiga aylanib

bormokda. Jumladan, jalb etilgan, chetga chiqarilgan va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 2017 yilga kelib 1990 yilga nisbatan mos ravishda 3 marta ortgan. 2009 yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hajmi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta‘siri ostida 2008 yildagi 1 trln. 979 mlrd. dollarga nisbatan 39% ga pasayib, 1 trln. 197 mlrd. dollarni tashkil etdi. Tahlillar ko‘rsatishicha, 2009 yilning birinchi choragida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi 44% ga qisqargan.

2017 yilda dunyo miqyosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hajmi 2016 yilga nisbatan 23 foizga yoki 438 mlrd. dollarga kamaygan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni chetga chiqarish hajmi esa 43 mlrd. dollarga kamaygan, shuningdek, dunyo bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 481 mlrd. dollarga kamaygan.

1.3-jadval

Jahon iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning rivojlanish dinamikasi²⁰

Ko‘rsatkichlar	Joriy baholardagi qiymati, mlrd. doll.					2017 yilda 1990 yilga nisbatan o‘zgarish, marta
	1990 y.	2011 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish	208	1700	1921	1868	1430	7
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni chetga chiqarish	241	1712	1622	1473	1430	6
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning hajmi	449	3412	3543	3341	2860	6

2017 yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hajmining 23% ga kamayishiga transchegaraviy birlashish va qo‘shib olishlar hajmining qiqarishi ta‘sir ko‘rsatgan. Transchegaraviy birlashish va qo‘shib olishlar hajmi oxirgi ikki yil

²⁰ UNCTAD, World Investment Report 2018. Investment and new industrial policies. New York and Geneva, 2018.

davomida 887 mlrd. AQSh dollaridan 694 mlrd. AQSh dollarigacha kamaygan holda, 2017 yilda 2016 yilga nisbatan 22% ga pasaygan. Mazkur tuzilgan bitimlar soni Evropada 34% ga, Yaponiyada esa 25% ga kamaygan.

Xalqaro birlashish va qo'shib olishlar jarayoni bundan yuz yillar oldin AQShda paydo bo'lgan. Shu bilan birga xalqaro birlashish va qo'shib olishlar bozori yuzaga keldi, ushbu bozorda oldi-sotdi obyekti sifatida aktsiyalarning yirik paketi yoki korxona qatnashadi. Hozirgi vaqtda xalqaro birlashish va qo'shib olishlar raqobat kurashining samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu usul kompaniyalarning bozordagi ulushining ortishiga, kapitallashtirish darajasining o'sishiga olib keladi.

Xalqaro birlashish va qo'shib olishlarning guruhlanish mezonlarini quyidagi to'rt guruhga ajratish mumkin: integratsiyalashuv tavsifi, moliyalashtirish shakli, bitimda uchinchi tomonning qatnashishi va qatnashchilarning bitimga munosabati. Nazarimizda, jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida bitimlarni moliyalashtirish shakllari dolzarb sanaladi.

Jahon amaliyotida xalqaro birlashishlarni moliyalashtirishning keng tarqalgan usuli pul mablag'lari va oddiy aktsiyalar (rivojlangan mamlakatlarda bitimlarning 80% gacha) hisoblanadi. Nisbatan kam tarqalgan usullarga qarz dastaklari, imtiyozli aktsiyalar, hosilaviy qimmatbaho qog'ozlar yoki ularni aralash qo'llash orqali moliyalashtirishlar kiradi. Masalan, Rossiyada oddiy aktsiyalar orqali moliyalashtirish juda kam uchraydi. Ushbu usul, odatda, yirik kompaniyalar tomonidan kichik kompaniyalarni qo'shib olish jarayonini tugatishda qo'llaniladi. Jumladan, 2007 yilda Rossiyada AQShdan farqli ravishda fond bozorlarining o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari tufayli amalga oshirilgan bitimlarning 95% i pul mablag'lari orqali moliyalashtirilgan.

Jahonda xalqaro birlashish va qo'shib olishlarning tarmoq tarkibi tahlillari ko'rsatishicha, 2017 yilda ushbu turdagi jami bitimlarning 24% i sanoatda, 66% i xizmatlar sohasida sodir bo'lgan. Rivojlangan mamlakatlarda imzolangan asosiy bitimlar sanoatda (37,9%) amalga oshirilgan bo'lsa, rivojlanayotgan (58,9%) va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida (72,8%) esa imzolangan bitimlarning katta qismi

xizmatlar sohasiga to'g'ri keladi. Jahon iqtisodiyotiga kiruvchi turli mamlakatlar guruhida birlashish va qo'shib olishlarning tarmoq tarkibida qarama-qarshi tendentsiyalar kuzatilmokda. Jahonda va rivojlangan mamlakatlar guruhida imzolangan shartnomalar tarkibida qishloq xo'jaligi tarmog'ining hissassi keskin ortgani holda, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida, aksincha, ushbu tarmoq ulushi keskin pasayish tendentsiyasiga ega O'zbekistonda amalga oshirilgan birlashish va qo'shib olishlar bo'yicha bitimlar soni va hajmi ortib bormoqda. Jumladan, 2012-2017 yillarda ushbu bitimlar soni 18 tadan 51 taga, ularning qiymati 224,8 mln. dollardan 442,6 mln. dollarga qadar ortgan.

2017 yilda birlashish va qo'shib olishlar bo'yicha bitimlar Turkiya (41,1%), O'zbekiston (28,6%), Xitoy (24,2%), Birlashgan arab amirligi (7,0%), Kanada (2,9%) va boshqa mamlakatlar (5,3%) kompanmyalariga tegishlidir. Ushbu bitimlar tekstil (39,2%), bank (35,6%), paxta (8,8%), kabel (7,0%), neftgaz (2,9%), mashinasozlik (2,2%) va boshqa (3,3%) tarmoqlarda amalga oshirilgan.

Tahlillar ko'rsatishicha, 2017 yilda jahon konyunkturasining yaxshilanishi, xorijiy investorlar tomonidan yirik loyihalar va xususiylashtirish bitimlarining amalga oshirilishi birlashish va qo'shib olishlar hajmi 300-350 mln. dollarga teng bo'lishi kutilmokda.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jahon xo'jaligi globallashtiruvining asosiy omilga aylandi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar faollashuvining sabablari va harakatlantiruvchi kuchlari quyidagilardan iborat²¹:

- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar yordamida milliy bozorlarda monopolistik foyda olishning mumkinligi;
- tashqi savdoga nisbatan qo'shimcha foyda olish imkoniyati;
- transmilliy korporatsiyalarning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni eltuvchilari sifatida maydonga chiqishi;
- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga nisbatan rivojlanayotgan mamlakatlar ehtiyojining keskin o'sishi;

²¹ Alfaro L. "Gains from Foreign Direct Investment: Macro and Micro Approaches." World Bank Economic Review (2016): 1–14.; Bayraktar N. Foreign Direct Investment and Investment Climate // Procedia Economics and Finance. 2013. Vol. 5. P. 83–92.

– retsipient-mamlakatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishni rag‘batlantiruvchi mexanizmlarning shakllanishi.

XXI asr boshlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining jadal sur‘atlar bilan o‘sishi va ularning xalqaro miqyosda boshqarilishi zaruriyati investitsiyalar bilan tashqi savdo miqdori o‘rtasida bog‘liqlik masalalarini tadqiq etishni taqozo etmoqda.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi tashqi savdoning o‘sinh sur‘atlari va rivojlanish istiqbollari jiddiy ta’sir o‘tkazadi. Ular o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- tashqi savdo iqtisodiy o‘sinh omili sifatida tan olingan;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar xorijiy bozorlarga tovar va xizmatlar etkazib berishning vositasi, xalqaro ishlab chiqarish tizimining asosi sifatida jahon savdosining yo‘nalishlari, hajmi va tarkibiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi;
- jahonda aksariyat mamlakatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanish jarayonidagi ijobiy o‘rnini qo‘llab-quvvatlashmoqda. Ushbu holat mazkur mamlakatlar tomonidan amalga oshirilayotgan xorijiy investitsiyalar borasidagi siyosatda o‘z aksini topmoqda. Shu bilan birga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimiga jahon mamlakatlari tomonidan olib boriladigan tashqi savdo siyosati ijobiy ta’sirini o‘tkazadi;
- jahon iqtisodiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va tashqi savdodan iqtisodiy rivojlanishda uyg‘unlikda foydalanish lozim.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular ichki jamg‘armalar darajasidan ko‘proq miqdorda kapital jamg‘arish, to‘lov balansini qo‘llab-quvvatlash va import qilish imkoniyatini kengaytirish orqali iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar alohida korxonalarining faoliyati ishlab chiqarish va kapital samaradorligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va menejment tizimini takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayonlar mahsulot va xizmatlar etkazib beruvchilar, buyurtmachilar, raqobatchilarga bilvosita

ta'sir ko'rsatish orqali ichki bozorni rivojlantirish, ishchilarning malakasi va amaliy tajribasini oshirishda yordam beradi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, milliy iqtisodiyotning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish holati ichki bozor, hamda eksportning hajmi, tabiiy va mineral resurslar, malakali ishchi kuchi mavjudligi, bozor islohotlarini amalga oshirish sur'atlari, iqtisodiy barqarorlik omillari bilan bog'likdir.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning jozibadorligini belgilovchi omillarni besh guruhga bo'lish mumkin:

- bozor omillari (ichki bozor va eksport imkoniyatlari).
- boy tabiiy resurslarning mavjudligi.
- ishlab chiqarish xarajatlari omillari.
- investitsiya muhiti.
- mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi.

Umuman, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni investitsiyalash maqsadiga ko'ra quyidagi besh guruhga guruhlash mumkin:

1. Ichki bozorni egallashga yo'naltirilgan investitsiyalar. Ushbu investitsiyalar tashqi savdodagi mavjud to'siqlarni aylanib o'tish maqsadida amalga oshiriladi. «Bozor izlash»dan manfaatdor kompaniyalar, odatda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlarda yangi bozorlarga kirib borish, uning muayyan qismini ishlash va tanlash imkoniyatlarini kengaytirish nuqtai nazaridan amalga oshiradilar. Ushbu kompaniyalar uchun ichki bozorni va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad miqdori muhim ahamiyatga ega.

2. Eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan integratsiyalar. Ushbu investitsiyalarni jalb etish uchun mamlakatlar malakali va arzon ishchi kuchiga ega bo'lishlari lozim. Bunda makroiqtisodiy va siyosiy barqarorlik, xorijiy investitsiyalarni hukuqiy tartibga solishning mukammal tizimi, soliq imtiyozlarining mavjudligi kabi omillar muxim ahamiyat kasb etadi.

3. Resurs izlashga ixtisoslashgan investitsiyalar. Resurs izlashdan manfaatdor firmalarni, birinchi navbatda, mamlakatda ishlab chiqarish resurslarining mavjudligi qiziqtiradi.

4. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida yoʻnaltirilgan investitsiyalar. Xorijiy investitsiyalarning ushbu turi kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish orqali nisbiy afzalliklaridan samaraliroq foydalanish maqsadida amalga oshiriladi. Mazkur guruh investitsiyalari odatda korporativ strategiyaga asoslanadi.

5. Texnologiyalarni yangilash maqsadida amalga oshirilgan investitsiyalar. Ushbu turdagi investitsiyalar yuqori texnologiyali ishlab chiqarish - elektronika, biotexnologiya, nanotexnologiya va sanoatning boshqa yangi tarmoqlarida jamlangan.

Amalda kompaniyalar bir vaqtning oʻzida bozor izlash, eksport bozoriga yoʻl topish, samaradorlikni oshirish va resurslar qidirib topish kabi omillardan kelib chiqqan holda investitsion qarorlar qabul qiladilar. Oʻtish iqtisodiyoti mamlakatlariga toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni kiritishda yirik kompaniyalar aksariyat ichki va eksport bozori salohiyati mavjud resurslarga erishish imkoniyatiga alohida ahamiyat berishmoqda.

1.3. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning xalqaro amaliyoti

Xorijiy investitsiyalarni jalb etuvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga toʻgʻridan-toʻgʻri va portfel investitsiyalar turlicha taʼsir koʻrsatadi. Ushbu holat bu turdagi investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb etishda kulaylik yaratuvchi omillarning turli mamlakatlarda bir-biridan farqlanishiga olib keladi. Shu bilan birga ushbu omillar umumiy belgilarga ham egadir.

Mamlakatning toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar uchun jozibadorligini taʼminlab beruvchi omillar asosida J.Danning tomonidan ishlab chiqilgan va «eklektik paradigma» nomini olgan kontseptsiya yotadi. Ushbu kontseptsiya quyidagilarga asoslanadi:

- mulkchilik xuquqi sohasidagi qiyosiy afzalliklar (xususan, boshqaruv bilan bog'liq o'z texnologiyalari yoki afzalliklarning bo'lishi);
- mamlakatda mahalliy afzalliklarning bo'lishi (masalan, ichki bozor sig'iminining kattaligi, ishlab chiqarish xarajatlarining pastligi, infratuzilmaning rivojlanganligi, ishchi kuchi malakasi va qiymati);
- firma ichki aloqalaridagi maksimal afzalliklar, mustaqil investorlar va retsipientlar o'rtasida raqobatning mavjudligi.

Birinchi va uchinchi shart firma xususiyatlarini ifodalasa, ikkinchi shart mamlakatdagi investitsiya muhiti bilan bog'liq xususiyatlarni aks ettiradi. Qabul qiluvchi mamlakat faqat birinchi afzallikka ega bo'lsa, investor ichki bozorga kirish uchun litsenziyalash yoki patentlarni sotish strategiyasini tanlaydi. Agar birinchi va uchinchi shartlar bajarilsa, qabul qiluvchi mamlakat uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kapital qo'yilmalarning eng afzal shakli hisoblanadi va ushbu xilda ikkinchi omil ham hisobga olinadi.

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, turli mamlakatlar o'rtasida milliy iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlarda ma'lum farqlar mavjud. Shuning uchun mamlakatning investitsiya muhiti quyidagi omillar harakati asosida shakllanadi:

- makroiqtisodiy omillar;
- iqtisodiyotni tartibga solishning xuquqiy rejimi;
- tadbirkorlik muhiti.

Xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotining jozibadorligini belgilovchi muhim omil mamlakatning turli xil tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi hisoblanadi. Shu vaqtga qadar transmilliy korporatsiyalar asosan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar yordamida emas, balki noaktsiyadorlik shartnomalari tuzish asosida resurslar qazib olishda ishtirok etib kelmokda. Shu bilan birga XX asr 90-yillarining ikkinchi yarmida qazib olish sanoatiga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning hajmi biroz qisqardi.

Transmilliy korporatsiyalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar ko'rsatishicha, mamlakatdagi investitsiya muhitini belgilovchi eng muhim omillardan biri - qabul qiluvchi mamlakat ichki bozorining sig'imi hisoblanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb kilishni qo‘llab-quvvatlaydigan retsipient-mamlakatlar tavsifi²²

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlarning umumiy shart-sharoitlari	Korporatsiyalar maqsadlari bo‘yicha tasniflangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar turi	Retsipient-mamlakatlarning iqtisodiy tavsiflari
1. Siyosiy muhit: • iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy barqarorlik; • investorning kelishi va ish olib borishni tartibga soluvchi qoidalar; • xorijiy kompaniya filiallariga bo‘lgan munosabat; • bozorlarning amal qilishi va tarkibi (raqobat, birlashish va qo‘shib olishlar siyosati); • to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xalqaro bitimlar; • xususiylashtirish siyosati; • savdo siyosati (tarif va notarif to‘siqlar).	A. Sotish bozorlarini kengaytirish	• bozor hajmi va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad; • bozorning o‘sish sur‘atlari; • mintaqaviy va global bozorlarga chiqish; • mamlakat iste’molchilari uchun xos bo‘lgan afzalliklar; • bozorlar tarkibi; • xom-ashyo; • malakasiz kam ish haqi to‘lanadigan ishchi kuchi; • malakali kadrlar; • texnologik, innovatsion va boshqa yaratilgan aktivlar (masalan, savdo markalari), shu jumladan, insonlarda, firmalar va ularning guruhlarida mujassamlashgan; • moddiy infratuzilma (portlar, yo‘llar, energiya ta’minoti, aloqa); • resurslar va aktiv qiymatining mehnat unumdorligi bilan birgalikdagi omili; • transport va aloqa xarajatlari, oraliq mahsulotlarni sotib olishga sarflangan xarajatlar; • korporatsiyaning mintaqaviy tarmog‘ini yaratishga yordam beradigan mintaqaviy • integratsion guruhga a’zolik.
2. Iqtisodiy omillar: • aniq mexanizmlar; • bozor infratuzilmasi; • iqtisodiy erkinlik.	B. Tabiiy resurslardan (aktivlardan) foydalanish huquqini qo‘lga kiritish	
3. Biznesni qo‘llab-quvvatlash: • investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar; • investitsiyalarni rag‘batlantirish; • korruptsiyaga qarshi kurash va boshqaruv samaradorligi bilan bog‘liq «qo‘shimcha chiqimlar» va h.k.	S. investitsiyalar, savdo vasoliq siyosati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik	
3. Ijtimoiy soha (ikki tilli maktablar, turmush sifati va h.k.);		
4. Investitsiyalarga xizmat ko‘rsatish	D. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish	

Ushbu ko‘rsatkich yalpi ichki mahsulot hajmi va aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi daromadlar bilan o‘lchanadi. Katta sig‘imga ega bulgan bozor firmaga iqtisodiyot ko‘lami, sig‘imi afzalliklarini amalga oshirish imkonini beradi.²³

²² Манба: UNCTAD. Word Investment Report. 2014: Trend and Determinants. Table IV.I. P. 36.

²³ P. Jadhav Determinants of foreign direct investment in BRICS economies: Analysis of economic, institutional and political factor // Procedia – Social and Behavioral Sciences. 2012. Vol. 37. P. 5-14

Makroiqtisodiy omillar tarkibiga retsipient-mamlakatdagi siyosiy barkarorlik va milliy valyuta almashuv kursining o'zgarishi ham kiradi.

Mamlakatning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun jozibadorligi qulay va barkaror xuquqiy rejim, xorijiy investorlarga mulkini milliyalashtirish xavfidan kafolatlar berilishi va uning xuquqlarini kamsitmaydigan rejim yaratilishi bilan belgilanadi.

Investitsiya muhitiga ta'sir kiladigan uchinchi guruh omillarni mamlakatda shakllangan umumiy tadbirkorlik muhiti omillari (solik, tizimi, ishlab chiqarish xarajatlari darajasi, ishchi kuchi malakasi darajasi, munosib infratuzilmaning mavjudligi, ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatlari) tashkil qiladi.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga ta'sir qiluvchi omillarni quyidagicha guruhlash mumkin:

- siyosiy vaziyat;
- tadbirkorlikka ko'maklashuvchi chora-tadbirlar;
- iqtisodiy o'sish sur'atlari;
- iqtisodiy siyosat.

Ushbu omillar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga jalb etilishi yoki chetga chiqib ketishiga sabab bo'ladi va uning hajmiga ta'sir ko'rsatadi.

YuNKTAD (Birlashgan millatlarning Savdo va rivojlanish konferentsiyasi) mutaxassislari tomonidan tayyorlangan jadvalda o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimlarini tartibga solib turuvchi yoki rag'batlantiruvchi iqtisodiy omillar umumlashtirilgan shaklda berilgan. Ko'rsatkichlarning uch guruhga bo'linishi nisbiydir.

Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2015-2017 yillardan rivojlanayotgan mamlakatlarga jami kapital oqimi hajmi 1 trln. AQSh dollariga teng bo'lgan, bunda, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar 612 mlrd. AQSh dollariga, portfel investitsiyalar xajmi 224 mlrd. AQSh dollariga, boshqa

investitsiyalar esa 214 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lgan. Jami investitsiyalar hajmida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning salmog'i 58 foizni tashkil etgani holda 2013 yilga nisbatan 6,6 foizga oshgan.

1.5-jadval

2015-2017 yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarga kapital oqimi dinamikasi (mlrd. AQSh doll.hisobida)²⁴

Kapital oqimining turi	2015 y.	2016 y.	2017 y.
Jami	1150	1077	1050
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	574	592	612
Portfel investitsiyalar	372	301	224
Boshqa investitsiyalar	204	184	214

Portfel investitsiyalarni jalb etishda investitsiya muxitini shakllantiruvchi omillar kompleks xarakterda bulib, tadbirkorlik muhiti investorning strategiyasi va qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotiga xos xususiyatlarni kamrab oladi. Jaxon iqtisodiyotida XX asrning 90-yillaridan boshlab portfel investitsiyalar hajmining nisbatan barkaror sur'atlarda usishi kuzatila boshlandi. Bu holatni quyidagi omillar ta'siri bilan izohlash mumkin:

- moliya bozorlarining globallashuvi jarayonida moliyaviy kapitalni nisbatan kam xarajatlar bilan ko'chirish imkoniyatining yaratilishi;
- rivojlanayotgan bozorlarda makroiqtisodiy holatning barqarorlashuvi tufayli portfel investitsiyalarning ushbu mamlakatlar iqtisodiyotiga kiritilishi;
- xalkaro moliya bozorlarida foiz stavkalarining pasayishi va likvidlilikni ta'minlashning oshishi;
- jamg'armalarning institutsionallashuvi va moliyaviy aktivlarni professional darajada boshqarishning o'sishi.

Rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida iqtisodiyotning erkinlashuvi xamda tarkibiy islohotlarning amalga oshirilishi xorijiy investorlar uchun moliyaviy mablag'larni joylashtirishda ularning jozibadorligini oshirdi.

²⁴ UNCTAD, World Investment Report 2018. Investment and new industrial policies. New York and Geneva, 2018.

**O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar
oqimiga ta'sir qiluvchi omillar²⁵**

Omil	Kumaklashuvchn	Jilovlovchi
Iktisodiy omillar		
Ish haqi darajasi	13	—
Ishchilar malakasi	12	1
Bozor hajmi	2	8
Bozorning usish sur'atlari	2	3
Tabiiy resurslar	1	5
Boshqaruv malakasi	1	1
Moddiy infratuzilma	1	4
Moliyaviy infratuzilma	1	3
Bozorga chikish imkoniyatlari	—	1
Sanoatning holati	—	1
Siyosiy omillar		
Makroiqtisodiy barkarorlik	9	1
Siyosiy muxit	3	2
Valyutaning konvertatsiyalanishi	5	—
Xususiyashtirish uchun qulay strategiya	4	3
Xususiyashtirish sur'atlari	2	2
Maxalliy firmalarning raqobatga tayyorligi	3	2
Iqtisodiyotni rekonstruktsiya qilish mumkinligi	3	3
Soliklar tizimi	1	2
huquqiy barqarorlik, sud tizimi	—	5
Mavjud korxonalarning rekonstruktsiyasi xarakteri	—	3
Biznesga ko'maklashish		
Investorlarga sub'ektiv yaqinlik	11	—
Axborot	3	5
Mamlakat imiji	1	8
Moliyaviy rag'batlar	1	8
Bozor rag'batlari	1	3
Korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish	1	4

Portfel investitsiyalar uchun investitsiya jozibadorligining makroiqtisodiy omillari ikki guruhga bo'linadi: iqtisodiy va xuquqiy.

Iqtisodiy omillar qabul qiluvchi iqtisodiyotining umumiy holatini aks ettiradi. Ushbu omillarga iqtisodiy rivojlanish sur'atlari, barkaror valyuta kursi, valyuta zaxiralari darajasi, milliy bank tizimining holati, obligatsiyalar va aktsiyalar bozorining likvidlilik darajasi, foiz stavkalari darajasi kabi omillarni kiritish mumkin. Ba'zi omillar aktsiyadorlik kapitaliga investitsiya yo'naltiradigan kompaniyalar uchun

²⁵ Маһба UNCTAD. Word Investment Report. 2014: Trend and Determinants. Table IV.I. P. 36.

muhim bulsa, boshqalari esa qat'iy belgilangan daromad keltiruvchi investitsiyalarni amalga oshiruvchi firmalar uchun ahamiyatlidir. O'z mablag'larini aktsiyadorlik kapitaliga kiritayotgan investor uchun kompaniyaning barqaror o'sish sur'atlari va aktsiyalar likvidliligi muhim ahamiyatga ega. Obligatsiyalar bozorining likvidlilik darajasi va foiz stavkalari miqdori esa qat'iy belgilangan daromad keltiruvchi kapitalga mablag' sarflaydigan investorlar uchun jozibali xisoblanadi.

O'tish mamlakatlari iqtisodiyotiga jalb etilayotgan to'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalar o'rtasidagi nisbatni Rossiya misolida tahlil qilamiz.

1.7-jadval

Rossiya iqtisodiyotiga joylashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi va tarkibining o'zgarishi (foizda)²⁶

Ko'rsatkichlar	2015 y.	2016 y.	2017 y.
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni, jamiga nisb. %da	12,4	14,6	17,2
Portfel investitsiyalar, jamiga nisb. %da	0,5	1,2	0,6
Boshqa investitsiyalar, jamiga nisb. %da	87,1	84,2	82,2

Rossiya iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi keyingi yillarda oshish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Bunda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2017 yilda oxirgi uch yillikda eng yuqori ulushni tashkil qilgan holda jami investitsiyalardagi ulushi 17,2 foizga teng bo'lgan. 2015-2017 yillarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining oshishi Rossiyaning etakchi xalqaro tadqiqotlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga bo'lgan ishonchlilik indeksida Rossiyaning o'rnini mustahkamlanib borayotganligi qayd etilgan. Agar mazkur ko'rsatkich bo'yicha 2013 yilda Rossiya 18 o'rinda bo'lgan bo'lsa, 2017 yilga kelib 11 o'ringa chiqdi. Rossiyaning mazkur renkingga chiqishi xalqaro kompaniyalarning

²⁶ www.economy.gov.ru sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha Rossiya iqtisodiyotiga bo'lgan qiziqishining oshganligi bilan izohlanadi.

Rossiya iqtisodiyotiga jalb etilgan portfel investitsiyalarning jami xorijiy investitsiyalardagi ulushi 2015-2017 yilar oralig'ida o'zgarish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Xususan, 2017 yilda mazkur investitsiyalarning jami xorijiy investitsiyalardagi ulushi 0,6 foizni tashkil etgani holda 2015 yilga nisbatan 0,1 foizli punktga oshgan 2016 yilga nisbatan esa 0,6 foizli punktga kamaygan. Mazkur holatga ko'pgina siyosiy-ijtimoiy va makroiqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatgan holda xalqaro investorlar uchun rivojlanayotgan mamlakatlarga bo'lgan qiziqishning pasayishiga sabab bo'lgan.

Agar boshqa investitsiyalarni ko'radigan bo'lsak, ularning jami xorijiy investitsiyalardagi ulushi sezilarli darajada o'zgargan, jumladan 2015 yilda 87,1 foizga teng bo'lgan bo'lsa 2017 yilda 4,9 foizli punktga kamaygan holda 82,2 foizni tashkil etgan. Lekin oxirgi yillarda boshqa investitsiyalarning jami xorijiy investitsiyalardagi ulushi yuqori salmoqni tashkil etgan. Mohiyatiga ko'ra boshqa investitsiyalar Markaziy bankning to'lov balansi metodologiyasiga muvofiq, tashqi tijorat va bank kreditlari yoki zayyomlar, shuningdek, xorijiy jismoniy va yuridik shaxslarning milliy banklarda milliy valyutada hisobvaraqlar ochishi hamda norezidentlarning milliy valyutani sotib olishi tushuniladi.

Tadqiqot ishining mazkur bobida keltirilgan ma'lumotlar va ko'rsatkichlar tahliliga tayanib xulosa qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda investitsiya munosabatlari ijobiy tarzda rivojlanmoqda. Lekin, mavjud ilmiy salohiyat, tabiiy resurslarga boy mintaq va arzon ish kuchiga ega bo'lgan davlatda amaldagi holatni yanada jadallashtirish imkoniyatlariga moyil. Buning uchun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ustuvor yo'nalishlarni hayotga izchil tatbiq etishimiz va davr talabiga mos ravishda ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqmog'imiz lozim. Bizning fikrimizcha, mavjud ilmiy salohiyatga tayanib va investitsiya imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, shuningdek, dengiz va okean bandargohlariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyati yo'qligini to'liq e'tirof etgan holda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirmoq maqsadga muvofiq:

- qishloq hududlari va yo‘l qurilish yo‘nalishlarida xorijlik sheriklar bilan kontsessiya shartnomalari tuzib, ushbu tarmoqdagi muammolar ko‘lamini qisqartirishni jadallashtirish;

- qo‘shni mamlakatlar bilan tutash bo‘lgan mintaqalarda dunyoda e‘tirof etilgan investitsiyalar manbai hisoblangan erkin iqtisodiy makonlarni tashkil etish va izchil rivojlantirishni ta‘minlash;

- xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyasi mavjud bo‘lgan investorlarni keng jalb etishga qaratilgan shart-sharoitlarni yaratish lozim.

I bob bo‘yicha xulosa

2015-2017 yillardan rivojlanayotgan mamlakatlarga jami kapital oqimi hajmi 1 trln. AQSh dollariga teng bo‘lgan, bunda, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 612 mlrd. AQSh dollariga, portfel investitsiyalar xajmi 224 mlrd. AQSh dollariga, boshqa investitsiyalar esa 214 mlrd. AQSh dollariga teng bo‘lgan. Jami investitsiyalar hajmida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning salmog‘i 58 foizni tashkil etgani holda 2013 yilga nisbatan 6,6 foizga oshgan.

Mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish orqali ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruktsiya qilish, respublikamizning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo‘lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

II BOB. TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH AMALIYOTI TAHLILI

2.1. Jahon iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning tarkibi va rivojlanish holati tahlili

Iqtisodiyotda yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarini shakllantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik yangilashda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI)ni jalb qilish va ulardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy globallashtirish sharoitida jahon iqtisodiyotida ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni eksport va import qiluvchilar sifatida mazkur jarayonning faol ishtirokchisi hisoblanishadi. Chunki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar asosan transmilliy korporatsiyalar orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning tarkibini xorijiy kapitalni jalb qiluvchi va kapitalni chetga chiqaruvchi mamlakatlarni guruxlagan holda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining yo'nalishlari mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq holda belgilanadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni asosan jalb etuvchi va chiqaruvchi mamlakatlar sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar hisoblanishadi va ularning ulushiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar yillik oqimining 80% i to'g'ri keladi.

2017 yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimlari sezilarli o'zgarish tendentsiyalarini bilan xususiyatlandi. to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning global oqimi 2017 yilda 1,43 trln.AQSh dollarini tashkil etdi. 2017 yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi barcha asosiy iqtisodiy guruhlarda – rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarda keskin o'zgarish tendentsiyasiga ega bo'ldi. Jalb etilgan jami to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2015 yilga nisbatan 25,6 foizga kamayib 1,43 trln. AQSh dollarini tashkil etgan. Chetga chiqarilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi esa, 2015 yilga nisbatan 11,8 foizga kamaygan holda 2017

yilda 1,43 trln. AQSh dollarini tashkil etgan.

2.1-jadval.

Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar rivojlanishining geografik tarkibi, mlrd. doll.²⁷

	Xorijiy investitsiyalar oqimi	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2017 yilda 2015 yilga nisbatan o‘zgarish, %
Dunyo	to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish	1921	1867	1430	-25,6
	to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni chetga chiqarish	1622	1473	1430	-11,8
Rivojlangan mamlakatlar	to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish	1141	1133	712	-37,6
	to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni chetga chiqarish	1184	1041	1009	-14,8
Rivojlanayotgan mamlakatlar mamlakatlar	to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish	744	670	671	-9,8
	to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni chetga chiqarish	406	407	381	-6,2
O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari	to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish	36	64	47	30,6
	to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni chetga chiqarish	32	25	40	25,0


2017 yilda jahon iqtisodiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda 2015 yilga nisbatan pasayish tendentsiyasiga ega bo‘lgan. O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va chetga chiqarish hajmi 2017 yilda 2015 yilga nisbatan sezilarli darajada ortgan.

2017 yildagi dunyo bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va chetga chiqarish darajasining pasayishiga muayyan omillar ta’sir

²⁷ UNCTAD, World Investment Report 2018. Investment and new industrial policies. New York and Geneva, 2018. p. 201-203.

ko'rsatgan.

2017 yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning geografik rivojlanishini ko'radigan bo'lsak, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning oqimi Lotin Amerikasi va Qarib Ko'rfazida kuzatilgan bo'lib 2017 yilda investitsiya jalb etish 2016 yilga nisbatan 8 foizga oshgan, rivojlangan mamlakatlarda mazkur ko'rsatkich 37 foizga, Evropa ittifoqida 42 foizga, boshqa Evropaning rivojlangan mamlakatlarida esa 26 foizga kamaygan. Shimoliy Amerikada 39 foizga kamaygan, boshqa rivojlangan mamlakatlarda 7 foizga oshgan. Afrikada 21 foizga, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida 27 foizga kamaygan bo'lsa Osiyo va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda sezilarli o'zgarish sodir bo'lmagan.



2.1-rasm. Jahonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar rivojlanishi dinamikasi (mlrd. AQSh.doll)²⁸

AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Frantsiya kabi mamlakatlar xalqaro bozordagi asosiy investorlar bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar taklifini shakllantiradigan mamlakatlar hisoblanadilar. Jumladan, 2017 yilda xorijga chiqarilgan jami to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 24% i AQSh, 5,4% i Kanada, 5,7% i Germaniya, 11,2% i Yaponiya, 6,9% i Buyuk Britaniya hissasiga to'g'ri kelgan.

²⁸ UNCTAD, World Investment Report 2018. Investment and new industrial policies. New York and Geneva, 2018. p. 201-203.

Agar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning geografik tarkibini qitalar bo‘yicha tahlil etadigan bo‘lsak, eng yuqori o‘shish Afrika qitasida yuz bergan (27%), keyingi o‘rinda Lotin Amerikasi va Karib havzasi hududlari turadi (13%).

2.2-jadval

Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimining geografik tarkibi (jamiga nisbatan foiz hisobida)²⁹

	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish			To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni chetga chiqarish		
	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.
Dunyo bo‘yicha	100	100	100	100	100	100
Rivojlangan mamlakatlar	59,4	60,7	49,8	73,0	70,7	70,6
Rivojlanayotgan mamlakatlar	38,7	35,9	46,9	25,0	27,6	26,6
O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari	1,9	3,4	3,3	2,0	1,7	2,8

Yuqoridagi jadval ma‘lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimining geografik tarkibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda 2017 yilda yuqori ulushni rivojlangan mamlakatlar egallagan. Bu holat rivojlangan mamlakatlarning jahon investitsion muhitidagi ishtirokining faollashayotganligi bilan izohlanadi.

Tahlillar ko‘rsatishicha, rivojlanayotgan mamlakatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etuvchilar hisoblanishadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlangan mamlakatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning katta qismini o‘z iqtisodiyotlariga jalb etishgan.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni chetga chiqarishda rivojlangan mamlakatlarning ulushi yuqori bo‘lib 2017 yil holatiga ko‘ra 70,6 foizni tashkil etgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida Xitoy, o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari ichida esa Rossiya xorijiy investorlar eng jozibali hisoblanadi. Jumladan, BRICS

²⁹ UNCTAD, World Investment Report 2018. Investment and new industrial policies. New York and Geneva, 2018. p. 201-203.

(Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrika) mamlakatlari hissasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimining yuqori ulushi to‘g‘ri kelgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay investitsiya muhitini yaratgan mamlakat Xitoy hisoblanadi.

2017 yilda Xitoy iqtisodiyotiga jalb etilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 136 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgani holda 2016 yilga nisbatan 3 mlrd. AQSh dollariga oshgan.

Xitoy va Hindiston mamlakatlari iqtisodiyotining o‘shish sur‘atlari ko‘proq ichki omillarga tayanadi. Tahlillar ko‘rsatishicha, yalpi ichki mahsulotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ulushi (valyutaning xarid qobiliyati puyicha) Hindistonda 0,3% dan, Xitoyda esa 1% dan oshmaydi. Ikkala mamlakatda ham ichki talabning yalpi ichki mahsulotning qo‘shimcha o‘shish sur‘atlaridagi hissasi 90% dan kam emas. Hindiston iqtisodiyotining jadal sur‘atlarda o‘shishi chorijiy investorlar ishonchining ortishi va kirib kelayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar miqdorining ko‘payishiga olib keldi. eksportining rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Aholi daromadlarining muntazam o‘shib borishi mahsulotlarni sotish bozorlarini izlayotgan investorlar uchun mamlakatning investitsion imkoniyatlarini oshirdi. Jumladan, mamlakatga Walt-Mart, General Motors, IVM, Toyota, Nissan kabi yirik investorlar kirib keldi.³⁰

Braziliya Lotin Amerikasidagi eng yirik to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etuvchi mamlakat hisoblanadi va 2017 yilda 62,7 mlrd. dollar miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kiritilgan. Rossiya o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari ichida eng yirik to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etuvchi mamlakat sanaladi. Jumladan, mamlakatga 1992 yildan 2002 yilga qadar har yili o‘rtacha 2,4 mlrd. dollar investitsiya kirib kelgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2015 yilda — 11,8 mlrd. dollar, 2016 yilda 37 mlrd. dollar, 2017 yilda esa 25,3 mlrd. dollarga teng bo‘lgan.

³⁰ Paula Nistor. FDI Implications on BRICS Economy Growth. *Procedia Economics and Finance*. Volume 32, 2015, Pages 981-985. (<https://www.sciencedirect.com>, <https://www.scopus.com>).

Retsipient-mamlakatlarning umumiy soni muttasil oshib bormoqda. to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi mamlakatlar qatoriga Argentina, Chexiya, Vengriya, Malayziya, Meksika, Polsha, Tailand qo‘shildi. Mazkur mamlakatlarda iqtisodiy o‘shish, sanoat ishlab chiqarish va texnologik taraqqiyot xorijiy kapitaldan unumli foydalanish bilan uzviy bog‘liqdir.

2.3-jadval.

Markaziy Osiyo mamlakatlariga 2012-2017 yillarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi mln. AQSh doll.³¹

Mamlakatlar	2000-2005 yillarda o‘rtacha	2012	2013	2014	2015	2016	2017
Qozog‘iston	2488	13337	10321	8406	3860	8097	4 634
Qirg‘iziston	45	293	626	248	1142	616	94
Turkmaniston	262	3117	3061	3245	3 043	2243	2 314
O‘zbekiston	112	563	635	757	66	133	96
Tojikiston	71	233	144	289	397	219	141
Markaziy Osiyo bo‘yicha jami	2979	17543	14787	12945	5465	11308	4 965

Birlashgan millatlar tashkilotining savdo va rivojlanish bo‘yicha konferentsiyasi (YuNKTAD) ma’lumotlariga ko‘ra, Osiyoning 5 ta mamlakati (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston) bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi 2012-2017 yillarda 2000-2005 yillarga nisbatan qariyb 6 barobarga oshgan.

Birlashgan millatlar tashkilotining savdo va rivojlanish bo‘yicha konferentsiyasi ma’lumotlarida ta’kidlanishicha, ushbu mintqa juda ko‘plab xom ashyo va tabiiy resurslarga ega bo‘lib, bu holat xorijiy investorlar e’tiborini tortmoqda. Ekspertlar fikriga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlari istiqbolda xorijiy investitsiyalarni qayta ishlovchi sanoat tarmoqlariga jalb etishga alohida ahamiyat berishadi. Chunki, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi sanoat tarmoqlarining rivojlanishi mamlakatlar sanoat salohiyatining oshishiga, ularning jahon bozorlariga yuqori sifatli va raqobatbardosh tayyor mahsulotlar bilan

³¹ UNCTAD, World Investment Report 2018. Investment and new industrial policies. New York and Geneva, 2018.

chiqishiga qulay zamin yaratadi. Shuningdek, Birlashgan millatlar tashkiloti ekspertlari ta'kidlashicha, Markaziy Osiyoning yuqori salohiyatga ega iqtisodiyoti yangi avtomobil va temir yo'llari loyihalarida faol xorijiy investitsiya oqimlariga alohida urg'u bermoqda.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning tarmoq tarkibini o'rganish shuni ko'rsatadiki, XX asrdan boshlab uning tarmoq tarkibi quyidagicha bosqichma bosqich o'zgarib bordi:

Tarkibiy o'zgarishlarning dastlabki bosqichi XX asrning birinchi yarmini o'z ichiga oladi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar asosan tabiiy resurslarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Ikkinchi bosqich XX asrning 50 — 80-yillarini qamrab olib ushbu davrda korporatsiyalar o'z strategiyalarini xom ashyoni oddiy qayta ishlashdan, tayyor mahsulotni ishlab chiqarishga yo'naltira boshladilar. Xitoy to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ushbu yo'nalishda joylashtirishning namunasi bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda Xitoy jahon tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishning muhim markaziga aylanib bormokda.

Uchinchi bosqich XX asrning 90-yillaridan hozirga qadar davom etmoqda. Bu davrda yirik xorijiy kapital retsipient-mamlakatlar bozorlarida banklar, sug'urta kompaniyalari, transport firmalari va boshqa kompaniyalarning servis xizmatlari sifatida joylashtirila boshlandi. Prognozlarga qaganda yaqin kelajakda servis xizmatlarini ko'rsatish hajmiga qaraganda va birlamchi sektorning ishlab chiqarish hajmiga qaraganda jadal sur'atlarda rivojlanishi kutilmoqsa. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jadal sur'atlarda jalb qilish yo'liga o'tgan Xindiston ham xizmatlari bozorini barqaror sur'atlarda o'zlashtirib bormoqda.

2.2. O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishning asosiy omillari

Mamlakat iqtisodiyotini, xususan sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishga erishishda, investitsiya mablag'laridan oqilona foydalanish

muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z o'rinda mamlakat ichki va tashqi investitsiya mablag'larining iqtisodiyot sektori bo'yicha taqsimotida to'g'ri yo'nalishni belgilab olishni taqazo etadi. Shu nuqtai nazarda, mamlakat iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari samaradorligini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish uchun eng qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini isloh qilish, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, tovarlar (ishlar va xizmatlar)dan erkin foydalanishni ta'minlash, shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Soliq yukini kamaytirish va investorlar uchun soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, sog'lom raqobat muhitini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan soliq siyosati va bojxona-tarif jihatdan tartibga solish islohotlari jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, investorlar bilan ishlashda, ayniqsa joylarda, investorlarning tashabbuslari barcha darajadagi hokimliklar tomonidan lozim darajada qo'llab-quvvatlanmasligi, bu borada vazirlik va idoralar faoliyati aniq muvofiqlashtirilmaganligi bilan bog'liq byurokratik to'siq va g'ovlar hali ham mavjudligi qulay investitsiya muhitini shakllantirish bo'yicha davlat siyosatining izchilligiga bo'lgan ishonchning mustahkamlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish, investorlarning bu boradagi davlat siyosatining izchilligiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va investorlar bilan ishlashda davlat tuzilmalarining mas'uliyatini oshirish maqsadida 2018 yil 1 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmonga muvofiq insofli faoliyat yuritgan investor va tadbirkorlik sub'ektiga davlat organi (mansabdor shaxs) tomonidan ularga nisbatan qabul qilingan ma'muriy hujjatning qonuniy kuchiga ishonishi sababli kelib chiqqan mulkiy zararning o'rni qoplanadi, agarda ushbu hujjatning qonuniy kuchiga ishonib mol-mulkdan foydalangan, bitim tuzgan yoki taqdim etilgan afzallik va ustunliklardan boshqacha tarzda foydalangan hamda mazkur hujjat keyinchalik haqiqiy emas deb topilgan yoki bekor qilingan bo'lsa;

davlat organi (mansabdor shaxs)ning ma'muriy hujjatini bekor qilish yoki o'zgartirish masalasi, agar u insofli investor va tadbirkorlik sub'ektining qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lsa, sud tartibida ko'rib chiqiladi, uning saqlab qolinishi jamoat manfaatlariga tahdid solayotgan hollar bundan mustasno.

Shuningdek, davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilishga faqat yer uchastkasi olib qo'yilishi rejalashtirilayotgan manfaatdor shaxslar bilan ochiq muhokama o'tkazilganidan, shuningdek, foyda va xarajatlar baholanganidan keyin yo'l qo'yiladi;

yer uchastkalarini olib qo'yishda jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan turar joy va ishlab chiqarish binolari, boshqa imoratlar va inshootlarning buzilishiga ko'chmas mulkning bozor qiymati va olib qo'yish sababli mulkdorga etkazilgan zararning o'rni to'liq qoplanganidan keyin ruxsat beriladi;

jismoniy va yuridik shaxslarga davlat organi (mansabdor shaxs)ning noqonuniy ma'muriy hujjati qabul qilinishi oqibatida etkazilgan zarar davlat tomonidan, birinchi navbatda, tegishli organlarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanadi, keyinchalik aybdor shaxsdan regress tartibida undirib olinadi.

2018 yil 1 oktyabrdan investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini berishning quyidagi yangi mexanizmlari joriy etildi:

qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasini 50 yilgacha muddatga, lekin arizada ko'rsatilganidan kam bo'lmagan muddatga investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun uzoq muddatli ijaraga berish;

ko'chmas mulk obyektlarini (mehmonxonalar, savdo obyektlari, madaniy-ko'ngilochar majmualar, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari, ta'lim va tibbiyot tashkilotlari, yo'l infratuzilmasi va boshqalar) qurish uchun yer uchastkalariga doimiy egalik qilish huquqini auktsion orqali sotish.

Quyidagilarga:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tuman (shahar) hokimlariga chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarga qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan er uchastkasini 50 yilgacha muddatga, lekin arizada ko'rsatilganidan kam bo'lmagan muddatga investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun uzoq muddatli ijaraga berish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlar doirasida va tartibda 10 million AQSh dollaridan ko'p bo'lmagan ekvivalentda chet el investitsiyasi ulushi bo'lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda chet el investorlari bilan investitsiya shartnomalarini tuzish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga umumiy maydoni 2000 kvadrat metrdan ortiq, lekin 5000 kvadrat metrdan ko'p bo'lmagan, foydalanilmayotgan davlat mulki obyektlarini (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 iyundagi «Davlat mulki obyektlarini sotish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3067-son qarorining 1 va 2-ilovalarida ko'rsatilgan obyektlar bundan mustasno) investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun sotish to'g'risida qaror qabul qilish huquqi berildi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdorini 30 foizdan 15 foizgacha kamaytirish hamda chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonaning ishtirokchisi sifatida xorijiy yuridik shaxs qatnashishi shartligi to'g'risidagi talabni bekor qilish, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondining eng kam miqdorini 600 million so'mdan 400 million so'mgacha kamaytirish, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun davlat boji miqdorini

uch baravarga kamaytirish, aktsiyadorlik jamiyatlari ustav fondining eng kam miqdorini 400 million so‘m miqdorida belgilash tartibi joriy etildi.

Investitsiya kiritish vaqtida O‘zbekiston Respublikasida o‘rnatilgan eng kam oylik ish haqining 8 500 baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda xo‘jalik jamiyatlarining aktsiyalari va ulushlarini sotib olish, shuningdek, xorijiy korxona tashkil etish shaklida O‘zbekiston Respublikasiga investitsiya kiritgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga ko‘p martalik uch yillik viza olish va uning amal qilish muddatini O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqish zaruratisiz cheklanmagan miqdorda uzaytirish huquqi berildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi mamlakat iqtisodiyotining ustuvor sohalariga katta miqdorda investitsiya kiritgan chet el fuqarolariga «Faxriy fuqaro» maqomini berish tartibini joriy etishi belgilandi.

Shu bilan birgalikda mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantirish maqsadida 2012 yil 10 apreldagi «To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida belgilangan imtiyozlar mavjud.

Unga muvofiq yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘yilmalar kiritayotgan xorijiy investorlar uchun maksimal darajada qulay investitsiya muhitini yaratish, respublika mintaqalariga xorijiy sarmoyalar va zamonaviy texnologiyalar jalb etilishi rag‘batlantirilishini kuchaytirish, xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun kafolatlar va imtiyozlar tizimini yanada mustahkamlash maqsadida qabul qilindi.

Xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSh dollaridan kam bo‘lmagan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida soliq qonunchiligida o‘zgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i (tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish aylanmasi), mol-mulk solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani

rivojlantirish solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, yagona soliq to'lovi to'lashning mazkur korxonalar davlat ro'yxatidan o'tish sanasida amal qilgan me'yorlari va qoidalarini qo'llashga haqlidirlar».

Qiymati 50 million AQSh dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo'lgan investitsiya loyihalari doirasida, ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish byudjet mablag'lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-son Farmoni bilan belgilangan soliq imtiyozlari 2012 yilning II choragidan boshlab quyidagi iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida faoliyat yuritayotgan korxonalarga tatbiq etildi.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan imtiyozlar joriy etiladigan iqtisodiyot tarmoqlariga quyidagilar kiradi:

- Radioelektron sanoati buyumlari hamda kompyuter va hisoblash texnikasi butlovchi buyumlarini ishlab chiqarish.

- Engil sanoat:

- tayyor ip gazlama, jun gazlama va aralash gazlamalar, shuningdek trikotaj gazlama ishlab chiqarish;

- tayyor tikuvchilik, trikotaj, paypoq mahsulotlari va to'qimachilik galantereyasi ishlab chiqarish;

- Ipakchilik sanoati:

- shoyi gazlamalar va ipakdan tayyor buyumlar ishlab chiqarish.

- Qurilish materiallari sanoati:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 24 martdagi PF-3586-sonli Farmoni 1a-ilovasida ko'rsatilgan qurilish materiallarining yangi turlarini ishlab chiqarish.

- Parranda go'shti va tuxumni sanoat miqyosida etishtirish.

- Oziq-ovqat sanoati:

- mahalliy xom ashyodan sanoat miqyosida qayta ishlangan tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (alkogolli, alkogolsiz ichimliklar va tamaki mahsulotlari bundan mustasno).

- Go'sht-sut sanoati:

- go'sht va sut mahsulotlarining tayyor turlari, pishloq va sariyog' mahsulotlari ishlab chiqarish.

- Baliq va baliq mahsulotlarini qayta ishlash hamda konservalash.

- Kimyo sanoati.

- Neft-kimyo sanoati.

- Tibbiyot sanoati, shuningdek veterinariya uchun dori vositalarini ishlab chiqarish.

- Qadoqlash materiallarini ishlab chiqarish.

- Muqobil energiya manbalari negizida elektr stantsiyalari qurish.

- Ko'mir sanoati:

- ko'mir briketlarini ishlab chiqarish;

- Ishlab chiqarishga mo'ljallangan elektroferrosplav va metall buyumlarni ishlab chiqarish.

- Mashinasozlik va metallga ishlov berish:

- mashinasozlik;

- traktor va qishloq xo'jalik mashinasozligi;

- qurilish, yo'l va kommunal mashinasozlik;

- engil va oziq-ovqat sanoati hamda maishiy asboblarni mashinasozligi.

Mamlakatni jadal isloh etish va modernizatsiya qilish hamda mulkiy munosabatlarni takomillashtirish natijasida ko'plab korxonalar ishga tushirilishi chinakam industrial qudrat vujudga kelayotganligini bildiradi. Ularning iqtisodiy samarasi darhol ko'rinmasligi mumkin. Chunki, bunday sharoitda iqtisodiy samara kelgusi davrga ko'chadi va o'zining butun bo'yi-basti bilan yaqin kelajakda namoyon bo'ladi. Buni jahondagi rivojlangan davlatlar tajribasi tasdiqlab turibdi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalar – iqtisodiyotda mulkchilik munosabatlarini takomillashtirishning va iqtisodiy o‘rinishning moddiy asosidir. Bu maqsadlarda ulardan foydalanishda ham omilkorlik va xushyorlik talab etiladi.

2.3. Milliy iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish amaliyoti tahlili

Jahon iqtisodiyotining hozirgi bosqichi milliy iqtisodiyotning baynalminallashuvi, integratsiyalashuv jarayonlari hamda mamlakatlar o‘rtasidagi ixtisoslashuvning kuchayishi bilan ta’riflanadi. Respublikamizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, shubhasiz, o‘z navbatida, xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlashni, xususan, o‘zaro iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishni, ular bilan teng huquqli va ikki tomonlama manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi. Hamkorlikning muhim shakllaridan biri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdir. Jahon tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, chet el investitsiyalarini jalb qilish va ulardan foydalanish iqtisodiyotni rivojlantirishga yordamlashadi va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar uchun kuchli rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ushbu sohani huquqiy tartibga soluvchi "Chet el investitsiyalari to‘g‘risida"gi Qonun hamda bir qator boshqa qonun hujjatlari qabul qilindi. Ushbu qonunlarni qabul qilish, talablarga mos ravishda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritib borishning sababi bitta - qaerda imtiyoz, qaerda sharoit bo‘lsa, qonuniy kafolat beriladigan bo‘lsa, shu yoqqa investitsiya keladi.

Xorijiy investitsiyalar chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, qonun bilan taqiqlanmagan tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag‘batlantirgan holda jalb qilinadi. Lekin chet el kapitalini jalb qilishning hamma shakllari ham moliyalashtirishning tashqi manbai bo‘lmasligi mumkin. Bu, birinchi

navbatda, foiz to'lovlari bilan qaytarishni talab etadigan chet el kreditlari va qarzlariga taalluqli. Chunki, chet el kreditlari va xalqaro moliya institutlari qarzlarini ma'lum vaqt o'tgach asosiy qarz bilan birga belgilangan foizlarining qaytarilishini talab etadi. Chetdan jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar bilan chet eldan kiritiladigan kreditlarning o'ziga xos farqlari mavjuddir. Bu borada xorijiy investitsiyalar risklar doirasi bilan chet el kreditlari risklari kengligi farqlanadi.

Investitsiyalar, avvalo, ustuvor tarmoqlarga, ya'ni neft va ximiya sanoati, transport, energetika, er osti qazilma boyliklarini ishlab chiqarishga, qurilish, telekommunikatsiya tarmoqlariga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga va ularni keng qayta ishlashga, turizm sohalarini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Jahon iqtisodiyoti tajribasidan xorij kapitalini, xususan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish investitsiyalashda eng samarali vosita ekanligi ma'lum. Aynan chet el investitsiyalari mamlakatda iqtisodiy va texnologik yangilanish jarayonini harakatlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Respublikamizda investitsion siyosatni amalga oshirish maqsadida har yili investitsion dastur qabul qilinadi. Jumladan, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, ustuvor tarmoqlarga investitsiyalar kiritish, korxonalarning investitsion faoliyatini jadallashtirish, modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishga xorijiy investitsiyalarni, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni keng jalb qilish, ulardan samarali foydalanish, yangi ish o'rinlari yaratish va shular asosida respublikamiz iqtisodiyotini barqaror va bir maromda rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar – o'zga mamlakat rezidentlari tomonidan boshqa mamlakat real aktivlariga mablag' kiritish, uni tasarruf etish va ularning ishlatilishi ustidan nazorat o'rnatish. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tavsifiga ko'ra aktsiyalarning kamida 10 foiziga egalik qilish.

Jadal va mutanosib iqtisodiy oʻsish, chuqur tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda faol va aniq yoʻnaltirilgan investitsiya siyosati yuritish eng muhim omil hisoblanadi.

Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining oʻziga xos xususiyati mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni taʼminlaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon boʻlmoqda.

2.4-jadval

2016-2018 yillarda moliyalashtirish manbalari boʻyicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar³²

Koʻrsatkichlar	2016 yil		2017 yil		2018 yil	
	mlrd. soʻm.	oʻsish surʼati,%	mlrd. soʻm.	oʻsish surʼati,%	mlrd. soʻm.	oʻsish surʼati,%
Jami	49476,8	109,6	60719,2	107,1	107333,0	118,1
Markazlashtirilgan investitsiyalar	10460,9	110,5	14975,0	119,2	34445,4	130,1
Byudjet mablagʻlari	2210,9	100,4	3367,9	126,6	4121,1	88,7
Davlat maqsadli jamgʻarmalari mablagʻlari	2340,3	84,5	2333,2	82,4	5468,7	170,6
Bolalar sportini rivojlantirish jamgʻarmasi mablagʻlari	311,3	114,6	184,4	49,8	271,2	129,0
Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasining mablagʻlari	2338,2	111,9	5175,7	184,8	7894,8	103,7
Chet el investitsiyalari va hukumat kafolati ostidagi olingan kreditlar	3260,2	152,8	3913,8	100,3	16689,6	2,8 m.
Markazlashtirilmagan investitsiyalar	39015,9	109,3	45744,2	103,7	72884,6	59,3
Korxonalarining mablagʻlari	14246,9	101,3	17882,7	98,9	30062,9	106,5
Aholi mablagʻlari	12108,1	129,4	8790,8	84,5	12127,8	104,1
Toʻgʻridan-toʻgʻri chet el investitsiyalari va kreditlari	7569,0	108,0	12395,2	140,7	14660,4	85,8
Tijorat banklarining kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari	5091,9	95,9	6675,5	100,9	16033,5	131,3

³² Oʻzbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2018 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2017 yilga nisbatan 76,8 foizga oshgan. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yirik qismi markazlashmagan investitsiyalar hisobidan shakllangan. Bu holat mamlakatimizda investitsiya dasturini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlarning faollashgani bilan izohlanadi.

2018 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmida aholi va korxonalar mablag'lari 39,3%ni, xorijiy investitsiya va kreditlar 29,2%ni, bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 14,9%ni tashkil etgan. Shu bilan birgalikda byudjet mablag'larining ulushi 2006 yildagi 12,3%dan 3,8%ga kamaydi. Mazkur holat mamlakatimizda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyalash darajasining oshirilganligi hamda mahalliy va xorijiy tashkilotlarning investitsion jarayonlardagi ishtirokinining faollashganligi bilan izohlanadi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 23661,6 mlrd.so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 22,0 %i o'zlashtirilgan.


Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 3 faoliyat turi quyidagilar:

- Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 4 097,2 mlrd.so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 3,8 %);
- metallurgiya sanoati 4 299,8 mlrd.so'm (4,0 %);
- to'qimachilik mahsulotlari va kiyim kechak ishlab chiqarish 4 627,3 mlrd.so'm (4,3 %).

Tog'-kon sanoatida 12 253,9 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 11,4 %i o'zlashtirildi. Shundan 8 871,7 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 8,3 %i xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarishga yo'naltirilgan.

2018 yilda 31350,0 mlrd.so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 29,2 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi. Jami xorijiy

investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 13 085,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi va qolgan 18 265 mlrd.so‘m xorijiy kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi.



2.2-rasm. 2018 yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar³³

To‘g‘ridan - to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 14660,4 mlrd so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lib, undan 89,3 %i yoki 13 085,0 mlrd.so‘m investitsiyalar va qolgan 10,7 %i yoki 1575,4 mlrd.so‘m kreditlarni tashkil etdi.


Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish surati 136,6 %ni tashkil etdi.

O‘shish suratlarini hududlar kesimida ko‘radigan bo‘lsak, eng yuqori ko‘rsatkich Navoiy viloyatida qayd etilganini ko‘rish mumkin. Ushbu hududda xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,6 marttaga ko‘paygan.

Eng past o‘shish surati Buxoro viloyatida kuzatilib, u o‘tgan yilning mos davriga nisbatan bor yo‘g‘i 36,6 %ni tashkil etdi.

³³ O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Elektr, gaz bilan taʼminlash faoliyati boʻyicha jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 34,2 %i yoki 10 731,7 mlrd. soʻm xorijiy investitsiya va kreditlar oʻzlashtirilgan boʻlib, ular asosan yuqorida keltirib oʻtilganidek 450 MVt quvvatli 2 bugʻ-gaz qurilmasini kengaytirish boʻyicha qurilish ishlari, Namangan viloyati Toʻraqoʻrgʻon tumanida umumiy quvvati 900 MVt boʻlgan yangi issiqlik elektrostantsiyasi qurilishi kabi yirik investitsiya loyihalari bilan bogʻliqdir.



2.3-rasm. 2018 yilda xorijiy investitsiya va kreditlarning oʻsish suratlari (%da)³⁴


Qayta ishlash sanoatida ham katta hajmda xorijiy investitsiya va kreditlar oʻzlashtirilib, jami 8352,1 mlrd.soʻm yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 26,6% %i oʻzlashtirildi.

Togʻ-kon sanoatida esa u 6 159,3 mlrd. soʻmni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 19,6 %ni tashkil etdi. Bu Shoʻrtan gaz-kimyoy majmuasida tozalangan metan asosida sintetik suyultirilgan yoqilgʻI ishlab chiqarishni tashkil etish, Kandim konlar guruhini ishlab chiqarishga tayyorlash va gazni qayta ishlash zavodining qurilishi va boshqa investitsiyalari bilan bogʻliq.

Bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni

³⁴ Oʻzbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi tobora ortib borayotgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



2.4-rasm. 2018 yilda jami xorijiy investitsiya va kreditlarda tarmoqlarning ulushi (foizda)³⁵

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati benihoya katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

ikkinchidan, o'rni bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohaslariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;

uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

ta'minlaydi;

to'rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnika bazasini yangilaydi va texnik qayta kurollantiradi;

beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi va h. k.

2017 yilda xorijiy investitsiyalar xajmi barqaror bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlardagi ijobiy ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiyotni isloh etish, tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlar va hududlarni modernizatsiya qilish, ularning raqobatbardoshlik darajasini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish hamda ilg'or texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya tizimlarini barcha sohalarga yanada faol joriy etish va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha faol investitsiya siyosatining amalga oshirilishi 2017 yilda ham iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minladi.

2017 yil yanvar-dekabrida xorijiy investitsiya va kreditlarning o'sish sur'ati yuqori bo'lib, shu yil yanvar-sentyabriga nisbatan 18,2 % punktga ko'paydi, bu albatta, Kandim konlar guruhini ishlab chiqarishga tayyorlash va gazni qayta ishlash zavodini qurish loyihasining bajarilishi bilan bog'liq.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 22,1 % dan 26,9 % ga ko'payib, o'tgan yilgi ko'rsatkichga nisbatan 4,8 % punktga oshdi, mos ravishda: Buxoro viloyatida 75,0 % (20,7 % punkt), Namangan viloyatida 35,7 % (10,7 % punkt), Surxondaryo viloyatida 17,4 % (6,5 % punkt), Xorazm viloyatida 11,8 % (5,2 % punkt) hamda Toshkent shahrida 18,8 % ini (2,4 % punktga) xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil etdi.

Shu bilan birga, quyida keltirilgan hududlarda xorijiy investitsiya va kreditlarning kamayishi kuzatildi: Qoraqalpog'iston Respublikasida 12,0 % (33,7 % punktga kamayish), Qashqadaryo viloyatida 19,2 % (9,5 % punkt), Sirdaryo viloyatida 5,7 % (2,6 % punkt), Farg'ona viloyatida 8,1 %ni (2,7 % punkt) tashkil etdi.

Olib borilayotgan investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan chora tadbirlar natijasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiyalarning o‘zlashtirilgan hajmi 2017 yilning yanvar-dekabrida 33,2 % punktiga ko‘payib, 12395,2 mlrd. so‘mni va jami investitsiyalardagi ulushi 20,4 % ni tashkil etdi.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va rivojlantirishda tashqi iqtisodiy omillardan samarali foydalanishga erishish uchun quyidagilarni taklif qilamiz:

1. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ichki muhitni yaxshilash, soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish, xorijiy investitsiyalarni ro‘yxatga olish tizimini soddalashtirish.

2. Xorijiy sarmoyadorni qiziqtiruvchi sohalar, obyektlarni aniqlash va ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlar majmuini shakllantirish, biznes rejalar va ularni iqtisodiy rivojlantirish loyihalarini ishlab chiqish va iqtisodiy jihatdan manfaatli bo‘lgan sohalarga chet el kapitalini jalb qilish.

3. Eksportda qayta ishlangan, tayyor mahsulotlar salmog‘ini ko‘paytirish, ayniqsa, paxta va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni qayta ishlashni oshirish va bu sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish.

4. Import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rivojlantirish uchun yirik ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari bilan samarali aloqasini ta‘minlash zarur, ya‘ni yirik korxonalarga yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlarni etkazib beruvchilari bo‘lishlari zarur.

5. Chet el investorlari uchun qulay investitsion muhitni yaratib berish va ular uchun kafolatli qonunchilik tizimini takomillashtirish;

6. Eksportga ishlaydigan kichik va o‘rta korxonalarni ko‘paytirish va ularni samarali faoliyat yuritishlari uchun etarli shart-sharoitlar yaratish va davlat tomonidan imtiyozli kredit liniyalari hajmini oshirish va h.k.

Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta‘minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektr texnikasi va

to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor e'tibor berilmoqda. Mazkur holat xorijiy investitsiyalarni ko'proq jalb qilish orqali iqtisodiyotimizning real sektori salohiyatini oshirish, yurtimiz hududlarida yangi, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, yangi ish o'rinlarini ko'paytirish, pirovard natijada mamlakatimizni barqaror va mutanosib tarzda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishdir.

II bob bo'yicha xulosa.

1. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar – o'zga mamlakat rezidentlari tomonidan boshqa mamlakat real aktivlariga mablag' kiritish, uni tasarruf etish va ularning ishlatilishi ustidan nazorat o'rnatish. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tavsifiga ko'ra aktsiyalarning kamida 10 foiziga egalik qilish.

2. Jahon iqtisodiyoti tajribasidan xorij kapitalini, xususan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish investitsiyalashda eng samarali vosita ekanligi ma'lum. Aynan chet el investitsiyalari mamlakatda iqtisodiy va texnologik yangilanish jarayonini harakatlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

3. Xorijiy investitsiyalar kiritilishidan asosiy maqsad ishlab chiqarilgan tovarlarning eksport salohiyatini oshirish, iste'molchilarni jahon talablariga mos keladigan tovarlar bilan ta'minlashdir.

III BOB. TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

3.1. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil etgan dunyodagi empirik tadqiqotlarni qiyosiy o'rganish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, har doim ham to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga keng ko'lamda va yirik hajmda jalb qilish iqtisodiy samaradorlikka olib kelavermaydi. Shuning uchun, chet el kapitalini milliy iqtisodiyotga faol jalb qilish bilan birga, iqtisodiyotning absorptsion salohiyatini oshirish, ular bilan birga kirib kelayotgan zamonaviy texnika va texnologiyani ishlata oladigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash investitsiyalardan foydalanish samaradorligini kuchaytirishni ta'minlaydi.

Tahlillar ko'rsatishicha, respublika xududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda qator muammolar mavjud:

- investitsiya infratuzilmasining etarlicha rivojlanmaganligi banklar, investitsiya fondlari va lizing kompaniyalari faoliyatini rag'batlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo'lga qo'yish;

- tadbirkorlarning biznes-ko'nikmalari, shu jumladan, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish tajribasi va huquqiy bilimlari etarli emasligi - hududlarda konsalting, marketing va yuridik xizmat ko'rsatuvchi markazlar tashkil etish va faoliyatini rivojlantirish;

- investitsiya takliflari va loyixa texnik-iqtisodiy asoslarining belgilangan talablarga javob bermasligi – tadbirkorlarga investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda tijorat banklari, hududlardagi savdo-sanoat palatasi va boshqa mas'ul idoralar tomonidan amaliy yordam ko'rsatilishini mahalliy hokimliklar tomonidan tashkil etish va doimiy nazoratga olish;

- loyiha tashabbuskorlari moliyaviy-iqtisodiy holatining nochorligi – investitsiya dasturlari va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlarga kiritish taklif etilayotgan loyihalar tashabbuskorlarining moliyaviy-iqtisodiy holatining mahalliy hokimliklar va tijorat banklari tomonidan chuqur tahlil qilinishi;

- mahalliy hokimliklarning xorijiy investorlarni hudud to'g'risida to'liq investitsion muhitga oid ma'lumotlar bilan ta'minlashda faol ishtirok etmayotganligi – xorijiy investorlarni to'laqonli ravishda axborot (investitsiya loyihalari va biznes takliflar bazasi, hududiy matbuot nashrlari, iqtisodiy tahlil xom-ashyo va mehnat salohiyati to'g'risida ma'lumotlar) bilan ta'minlash uchun har bir hudud bo'yicha "Viloyat investitsiya salohiyati" veb-portalini tashkil etish, investitsiya faoliyatiga oid konferentsiyalar, seminarlar va taqdimotlar (respublika hududida va xorijiy mamlakatlarda) o'tkazish.

Xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini jonlantirish va bevosita xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi kerak:

– investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza va qonunchilikni takomillashtirish;

– mamlakatimizda chuqur institutsional o'zgarishlar orqali investitsiyalarni boshqarishda davlat institutlari sifatini oshirish;

– erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish va samaradorligini oshirish;

– hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish jarayonlarini tezlashtirish va kengaytirish;

– investitsiyalarni faol o'zlashtirishda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish yordamida ishchi kuchidan oqilona foydalanishni tashkil etish va mehnat unumdorligini oshirish;

– bank infratuzilmasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish orqali kapital aylanishi tezlashuvini ta'minlash;

– korporativ boshqaruv sohasidagi yondashuvlarni tubdan o‘zgartirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish;

– tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va eksportni rag‘batlantirish.

– mamlakat investitsiya iqlimini yaxshilash va muammolar echimini topish maqsadida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mutaxassisleri, hududiy hokimliklarining mutaxassis vakillari, investitsiya imkoniyatiga ega bo‘lgan yirik kompaniya va korxonalar rahbarlari hamda respublikaning investitsiyalar sohasidagi etuk olimlari ishtirokida, keng jamoatchilik o‘rtasida ochiq muloqot tashkil qilinib, mavjud muammolar oshkoralik bilan har tomonlama muhokama etilishi lozim. Shu asosda masalaga keng jamoatchilik fikrini jalb qilgan holda, mutaxassislar, olimlar va amaliyotchilar o‘rtasida ilmiy va iqtisodiy asoslangan yagona investitsiya siyosatini, shuningdek, qabul qilingan qonun va qarorlarni amalda ishlash mexanizmini ishlab chiqish va hayotiyligini ta‘minlash lozim.

– xorijiy investitsiyalar oqimiga ta‘sir qiluvchi omillardan biri sifatida marketing tadqiqotini zaif olib borilayotgani, natijada ko‘plab ishlab chiqarilgan mahsulotlar omborlarda qoldiq bo‘lib qolayotganligi ko‘rsatilmoqda. Bu muammoni faqat investitsiyalarning o‘ziga bog‘liq, echimini izlamasdan, aholi va korxonalarning iste‘mol qobiliyatini ko‘tarish, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarga iisbatan sog‘lom talab darajasini oshirish nuqtai nazaridan qaralishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

– xorijiy investitsiyalarni jalb kilishning hududiy tarkibida notekislik saqlanib qolmoqda. Ayni paytda investitsion muhit borasida hududlardagi asosiy muammolarning mavjudligi investitsiyalash imkoniyatlari cheklanishi, va samaradorligi pasayishiga sabab bo‘lmoqda, chunki investitsion muhitdagi moliyaviy muammolarning hal etilmaganligi ayrim hududlarni oqsoq hududlar qatoriga tushishiga sabab bo‘ladi.

Ayni paytda asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar bo‘yicha tarkibini tahlil qilganimizda, ularning o‘rishini kuzatamiz. 3.1-jadvalda keltirilgan tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar bo‘yicha

tarkibida 2018 yil yakuniga ko‘ra, Sirdaryo viloyati 2,0 foiz, Xorazm viloyati 2,8 foiz, Jizzax viloyati 3,0 foiz, Andijon viloyati 3,8 foizni tashkil qilgan holda asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi va investitsion jozibadorlik borasida eng past hududlardan bo‘lib qolmoqda.

3.1-jadval.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar bo‘yicha tarkibi (mlrd. so‘m)³⁶

№	Hududlar	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.
1	Qoraqalpog‘iston Res-si	11,4	14,1	7,5	3,7	5,6
2	Andijon viloyati	4,2	4,0	3,8	3,7	3,8
3	Buxoro viloyati	9,8	9,5	11,8	18,1	7,3
4	Jizzax viloyati	3,0	2,5	2,5	2,4	3,0
5	Qashqadaryo viloyati	11,7	12,8	12,8	16,8	14,3
6	Navoiy viloyati	4,6	4,2	5,7	4,6	9,4
7	Namangan viloyati	4,8	4,7	4,8	5,0	6,6
8	Samarqand viloyati	6,5	6,8	6,8	5,4	5,4
9	Surxondaryo viloyati	4,1	3,8	3,8	4,9	5,7
10	Sirdaryo viloyati	2,7	2,5	2,2	2,2	2,0
11	Toshkent viloyati	10,8	9,6	7,7	7,1	8,7
12	Farg‘ona viloyati	5,8	5,1	4,7	3,9	4,6
13	Xorazm viloyati	3,6	3,4	2,9	2,8	2,8
14	Toshkent shahri	16,7	16,6	21,7	19,0	20,4
	Taqsimlanmagan hajm	0,3	0,4	1,3	0,4	0,4

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi investitsion loyihalarni, ularning barcha hujjatlari, texnik iqtisodiy asosini sifatli va talab darajasida ishlab chiqaruvchi professional loyiha injiniring kompaniyalarining sanoqli ekanligi va yaxshi rivojlanmaganligi, ularning malakali kadrlar bilan ta‘minlanmaganligi ham jiddiy muammo bo‘lib turibdi.

Ushbu kompaniyalar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar talab darajasida emas. Ular xorijiy moliyaviy institutlar shartlariga mos kelmaydi, ularning ekspertizada loyihaning asoslanmagan tomonlari-kamchiliklari ko‘zga tashlanib qolmoqda. Bu loyiha hujjatlarining asosli ravishda tayyorlanmaganligi, hisob-kitoblarda noaniqliklar mavjudligi bilan izohlanmoqda.

³⁶ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

– Mahsulot bozori, nufuzli raqobatchilarning narx va ishlab chiqarish siyosati, xom ashyo materiallariga bo‘lgan imkoniyatlar, yangi ishlab chiqarishni tashkil etish natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ekologik holatni baholash bo‘yicha ma’lumotlarning etishmasligi jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda.

– Xorijiy investitsiyalar faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikda ham qator muammo va kamchiliklar mavjud. Jumladan, 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida «chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talabiga rioya etgan holda eksport- import operatsiyalarini mustaqil ravishda amalga oshiradilar. O‘zlari ishlab chiqargan mahsulotni eksport qilganlarida bunday mahsulot litsenziyalanmaydi va kvotalanmaydi»³⁷, deyilgan. Bizningcha, bu erda birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotning qaysi qismi litsenziyalanmasligi va kvotalanmasligi to‘g‘risida aniqlik kiritish zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi hamda qo‘shma korxonalar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishning muammolarini quyidagi yo‘nalishlarga bo‘lib o‘rganish va ularni hal etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

- xorijiy investitsiyalarga oid qonunchilikni yanada takomillashtirish va ularning amaliyotda og‘ishmay bajarilishi;
- adolatli foyda olinishini kafolatlovchi qulay va barqaror yuridik, iqtisodiy shart-sharoitlarning yaratilishi;
- milliy valyutamiz so‘mning to‘liq konvertatsiyasiga erishish, uning barqarorligi va mustahkamligini ta’minlash;
- investitsion loyihalarning xujjatlarini tayyorlovchi maslahat-injiniring kompaniyalari sonini ko‘paytirish;
- respublikadagi siyosiy hayotga bo‘lgan tashqi tahdid;
- reklama-axborot ta’minotidagi taqchillik;
- telekommunikatsiya va aloqa tarmoqlarining jahon standartlariga to‘liq javob bera olmasligi;

³⁷O‘zbekiston Respublikasining Qonuni «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida» 1998 yil 30 aprel.

- mahsulot bozori, xom ashyo materiallarga bo‘lgan imkoniyatlar, yangi ishlab chiqarishni tashkil etish natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ekologik holatni baholash bo‘yicha ma’lumotlarning etishmasligi;
- aholi iqtisodiy savodxonlik darajasining pastligi, xorijiy investorlarga bo‘lgan munosabatning etarli darajada shakllanmaganligi;
- qo‘shma korxonalar va xorijiy sarmoya ishtirokidagi boshqa turdagi tadbirkorlik faoliyatini ro‘yxatdan o‘tkazishdagi to‘siqlar ko‘pligi.

Mamlakatimizda aniqlangan muammolar tahlili natijalariga ko‘ra, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, chuqur institutsional islohotlarni amalga oshirish, erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish, ishchi kuchi sifatini va mehnat unumdorligini oshirish, bank tizimi infratuzilmasini rivojlantirish, korporativ boshqaruvni tubdan isloh qilish, qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

3.2. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirish istiqbollari

Mamlakatimizda tarkibiy o‘zgarishlarni, iqtisodiyotning soha va tarmoqlarini diversifikatsiya va modernizatsiya qilishni izchil davom ettirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, shuningdek, transport, muhandislik, kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishga qaratilgan faol investitsiya siyosati olib borilmoqda.

Ma’lumki, xorijiy investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb qilish uch guruh omillariga ham bog‘liq bo‘ladi. Birinchidan, investitsiya quvvatini mavjudligi. Uni tabiiy, mehnat zahiralari, shuningdek ishlab chiqarish, iste’mol, moliyaviy, innovatsiya, institutsional va infratuzilmaviy quvvatlar tashkil qiladi. Ikkinchidan, mavjud investitsiya sharoitlari muhim ahamiyatga egadir. Bularga: umumiqtisodiy, bozor me’yoriy-huquqiy, axborot bilan ta’minlash, ekologik, ijtimoiy, etnografik va ijtimoiy madaniy sharoitlar kiradi. Uchinchidan, investitsiya tavakkalchiligi (riski) omillaridir. Ular xorijiy investorlarning investitsiya quvvati va investitsiya

sharoitlarining qulay afzalliklaridan foydalanish bo'yicha vazifalariga qarama-qarshi turadi.

Barcha guruhlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Misol uchun etarli darajada jalb qiluvchi bo'lmagan investitsiya sharoitlari, hatto yuqori quvvatli investitsiya loyihlarini amalga oshirish imkoniyatlarini ham pasaytirib yuboradi.

Respublikamizda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etilishi bilan etarlicha soliq imtiyozlari va preferentsiyalar berilgan bo'lsada, biroq, ularning soliq to'lovchilar tomonidan samarali foydalanayotganligining doimiy monitoringi to'liq yo'lga qo'yilmagan, shu sababli ushbu jarayonni doimiy tahlil etib soliq imtiyozlaridan samarali foydalanmayotgan soliq to'lovchilardan soliqlarni to'laligicha undirish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, bu imtiyozga ega bo'lish maqsadida faoliyatining dastlabki vaqtlarida normal ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etib, keyinchalik sun'iy ravishda foydani kamaytirib ko'rsatayotgan yoki bankrotlik holatini yuzaga keltirayotgan korxonalarga nisbatan soliq imtiyozlarining samaradorligi nazorat tartibida monitoring qilinishi lozim.

Investitsiya tavakkalchiligi (riski) - o'tish iqtisodida bo'lgan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha sharoitlarni shakllantirayotgan davlatlar uchun riskning muhim turlaridan biridir. Shuning uchun ham tavakkalchilikni, uning manbalarini va uning oldini olish usullarini aniqlash rivojlanayotgan mamlakatlar uchun hayotiy vazifa bo'lib hisoblanadi.

Tavakkalchilikni ma'lum bir qarorni qabul qilish natijasida zaxiralarni yo'qotish imkoniyati, daromadlarni ololmaslik yoki qo'shimcha xarajatlar zarurati sifatida belgilash mumkin. Tavakkalchilik - bu bashorat qilinayotgan loyihani amalga oshirishda haqiqiy sharoitlardan ozgina chekinilgan daromadlarni ololmaslik yoki zararlarni paydo bo'lib qolishi ehtimolidir.

Bozor iqtisodiy sharoitlarida mamlakatda mavjud bo'lgan tavakkalchilik omillarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Sababi investitsiya muhitiga birinchi navbatda ana shu omilning ta'siri kuchli bo'ladi. Ta'sir ko'rsatish xususiyati va paydo bo'lish manbalariga qarab, omillarning quyidagi guruhlarini ajratib ko'rsatish mumkin: siyosiy, makroiqtisodiy, mikroiktisodiy va

infratuzilmaviy.

Siyosiy omillarga davlat tuzumining barqarorligi; rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabi investor huquqlarini samarali himoya qilishni ta'minlaydigan rivojlangan qonunchilik asosining mavjudligi; investitsiyalarni uzoq muddatga jalb qilish uchun sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan, oldindan bashorat qilib bo'ladigan ishonchli-iqtisodiy siyosatning mavjudligi; iqtisodiy samarasi va izchil tartibga solishni amalga oshiruvchi davlat organlarining mavjudligi; mahalliy va xorijiy investorlar uchun axborot va ma'lumotlarning ochiqqligi hamda o'tkazilayotgan siyosatning oshkoraligi.

Makroiqtisodiy omillar iqtisodning umumiy holatini, uning o'sish sur'atlarini belgilaydi va mamlakat iqtisodi tsiklining qaysi fazasidaligini aniqlash hamda yaqin yillar ichidan bo'ladigan o'zgarishlarni bashorat qilish imkonini beradi. Omillarning bu guruh quyidagi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi: Inflyatsiya darajasi, ishsizlik, aholi jon boshiga o'rtacha daromad, milliy valyutaning barqarorligi, davlat byudjeti va to'lov balansining holati, qayta moliyalash stavkasi, daromadlarning har xil turlariga soliq solish darajasi. Bu erda iqtisodning rivojlanishida tizimlarning proportsiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni; yalpi ichki mahsulotda sanoat, qishloq xo'jaligi va iqtisodiy boshqa tarmoqlarining nisbiy ulushi, shuningdek, bu ko'satkichlar o'zgarishlarining dinamikasi.

O'zbekistondagi mavjud investitsiya muhiti, fikrimizcha, investorlarning investitsiya risklarini baholash asosida chet el investitsiyalari kirib kelishiga qulayliklar yaratish kerak. Chet ellik investorlar qabul qiluvchi mamlakatdagi investitsiya muhitini, uning xavfsizligi, siyosiy risklar darajasi va ularning sug'urtalanishi, investitsiyalash maqsadlarga muvofiqligi, iqtisodiyotning boshqalarga qaraganda qulayligi nuqtai nazardan baholaydilar.

Mamlakatga xos risk darajasi (qarzlar masalasi, import va eksport balansi, hukumatning barqarorligi va boshqalar), mahalliy sharoitning qo'shni mamlakatga nisbatan ustun tomonlari muhim o'rinda turadi. Investitsiyalarni rag'batlantirish tadbirlari (import xom ashyoga bojxona bojlarini bekor qilish, korporativ soliqni qisman yoki butunlay bekor qilish, soliqlar bo'yicha imtiyozlar), eksport sanoati

rayonlari, erkin savdo zonalari, bojxona bojlari amal qilmaydigan zonalarining bo'lishi va boshqalar alohida ahamiyatga ega.

Fikrimizcha, respublikada yaratilgan qulay investitsiya muhitini rivojlantirish uchun rag'batlantirish omillarini kuchaytirish talab etiladi. Shu munosabat bilan ishlab chiqarishga investitsiyalarni rag'batlantirish uchun tadbirkorlik tuzilmalariga jadallashgan amortizatsiya usullarini qo'llashda to'la erkinlik berish kerak. Jamg'arish va investitsiyalashni rag'batlantirish uchun, bizning nazariyamizda, investitsiya bo'yicha soliq kreditlarining turli shakllaridan kengroq foydalanishni yo'lga qo'yishi zarur.

Qulay investitsiya muhitini rivojlantirishda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish beqiyos ahamiyatga ega. Soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini to'rt jihatdan olib qarash mumkin, ular: soliq to'lashdan vaqtinchalik ozod qilish; soliq stavkasini kamaytirish; soliqqa tortiladigan bazani toraytirish; soliq majburiyatini bajarishni kechiktirish (soliq krediti). Qayd qilingan rag'batlar u yoki bu darajada chet el investitsiyalari ishtirokidagi keng doiradagi korxonalar uchun tatbiq etiladi.

Iqtisodiyotning globallasuvi va bir-biriga kirib borish, chet el investitsiyalarini milliy iqtisodiyotga jalb qilish hayotiy zaruratga aylanib borayotgan hozirgi sharoitlarda, investitsiya kapitalini mamlakatimizga eksport qiladigan mamlakatlarning amaldagi qonunlarini, investitsiya muhitini hisobga olgan holda takomillashtirish talab etiladi.

Rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarining amal qilishini, shuningdek investitsiyalarni inson kapitaliga, texnologik o'sish va texnika bilimlari sohalarini rivojlantirishga, kengaytirishga ham joriy qilish kerak. Bularning barchasi O'zbekistonda investitsiya muhitini modellashtirish masalasini kun tartibiga qo'yadi. Bu model xorijiy investorga ta'sir ko'rsatadigan omillar to'g'risida mukammal ma'lumot to'plash, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni yaqqol baholash hamda chet ellik sheriklar harakatlari motivatsiyasini anglash, chet el investitsiyalarini tartibga solishning asosiy vositalarini bir xil qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Xullas, milliy investitsiya muhiti bevosita chet el investitsiyalari oqimi uchun qulay va maqbul bo'lishi kerak. Buning uchun jami investitsiya risklari, xavfsizlik, daromadlilik, chet el investitsiyalari likvidligi, investitsiyalash maqsadlari inobatga olinishi zarur va bular asosida baholanishi shart. Bu borada qulay mahalliy sharoitlar, investitsiyalarni rag'batlantirish tadbirlari, kontsessiyalar tashkil etish, eksport sanoati rayonlari, bojxona bojlari amal qilmaydigan va erkin savdo zonalarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, dunyo mamlakatlari orasida chet el investitsiyalarini o'z milliy iqtisodiyotiga jalb etishning raqobat shakli yildan-yilga kuchayib bormoqda. Shu bois, chet ellik investorlarga yaratilgan qulaylik qaysi davlatda ustun darajada bo'lsa, boshqacha qilib aytganda, foyda olish ehtimoli kattaroq bo'lsa, tabiiyki, ularning aynan o'sha davlat iqtisodiyotiga o'z sarmoyasini kiritishga qiziqishi ortmoqda. Bu esa, bozor iqtisodiyotining nisbiy samaradorlik qonuniga mos keluvchi echim hisoblanadi, ya'ni qaerda samara (foyda) olish imkoniyati nisbatan yuqori bo'lsa, tadbirkorlar o'sha erdagi bozorga ko'proq intiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugun O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar ichida eng yuqori investitsiya muhiti yaratgan mamlakatlardan biri bo'lib qoldi. Bu, shubhasiz, iqtisodiyotimizga to'g'ridan-to'g'ri jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar oqimini yanada ko'paytiradi.

Davlatimiz iqtisodiy siyosati ko'proq to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishga va uni rag'batlantirishga qaratilganligi bois, turli shakldagi investitsiyalar oqimi yildan-yilga oshib borayapti. Chunki, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar doirasida aynan sarmoyadorlarning o'zlari bevosita ishtirok etishi hisobga olingan va buning uchun bizda etarlicha shart-sharoitlar mavjud. Ayniqsa, respublika mintaqalaridagi boy mineral xom ashyo resurslari, etarli miqdordagi malakali ishchi kuchlari, sog'lom atrof-muhit, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik kabi omillar shubhasiz, xorijiy investitsiyalar oqimining yanada ko'payishiga, respublika mintaqalarida faoliyat yuritadigan korxonalar rivojiga xizmat qiladi.

G'arb mamlakatlarida hukumat kapital qo'yilmalarni faollashtirish

strategiyasida ko‘proq xorijiy investitsiyalarni muvofiqlashtirishning egri usulidan (soliq, amortizatsiya, moliya-kredit siyosati) foydalanishni afzal ko‘rishadi. So‘nggi ikki o‘n yillikda g‘arbda investitsiya qarorlarini qabul qilishda va amalga oshirishda mahalliy hududlarning javobgarligi va roli oshib bormoqda. Qator mamlakatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya) mahalliy organlar xorijiy investitsiyalarni va investorlar faoliyatini muvofiqlashtirishda etarlicha mustaqillikka egadir. Bu erda investitsiya bozorini muvofiqlashtirishning asosiy vositasi sifatida daromad solig‘i (foyda solig‘i) qo‘llaniladi. Bu soliq stavkasining o‘zgarishi firma va kompaniyalarning investitsiya faoliyatiga bevosita ta’sir etadi.

Umuman so‘nggi 20 yil mobaynida rivojlangan mamlakatlarda investitsiya faoliyati keng kompyuterlashtirish, resurslarni tejash, yangi zamonaviy texnologiya, shuningdek mahalliy xokimiyatni roli va javobgarligini oshirish asosidagi yangi boshqaruv tizimi asosidagi iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishga yo‘naltirilgan. Mahalliy xokimiyatlarga investitsiya dasturlarini boshqarishda, ekologik siyosatni yurgizishda va hududiy rejalashtirishda asosiy rol belgilangan. Jahon tajribasi shundan guvoh beradiki, investitsiya dasturi va loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshishi uning ishtirokchilari o‘rtasida optimal proportsiyani ta’minlashga bog‘liqdir.

Davlat ham bu jarayonda muhim rolni o‘ynaydi, uning funksiyasiga asosan quyidagilarni kiritish mumkin: huquqiy muvofiqlashtirishni ta’minlash, munitsipial tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlarni rasmiylashtirish; moddiy va moliyaviy resurslarni birlashtirish uchun sharoit yaratish, soliq engilliklarini va boshqa moliyaviy imtiyozlarni belgilash; loyihani hayotga tatbiq etishda va uning noxush oqibatlari (ekologiya buzilishi, hududiy er uchastkasining buzilishi va boshqalar) uchun mahalliy organlarning javobgarligini aniqlash; loyihani amalga oshirish uchun aholini, ijtimoiy tashkilotlarni jalb etish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali loyihani hayotga tatbiq etishning maqsadga muvofiqligini keng targ‘ib etish.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, chet el investorlariga turli engillik va imtiyozlarni joriy etish bo‘yicha Xitoy davlati tajribasi ham ahamiyatlidir. Xitoy

hukumati investitsiyalar oqimini hududlar darajasida, mahalliy hokimiyatga katta vakolat bergan holda muvaffaqiyatli muvofiqlashtirib kelmoqda.

Hozirda Xitoy hukumati mamlakatning ichki regionlariga ko'plab, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun, ularga uzoq muddatga soliq to'lashdan ozod etish, foydasini har qanday to'siqlarsiz olib chiqib ketish kabi shart-sharoitlarni yaratmoqdalar. Mahalliy hokimiyatlar mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun chet el kapitalini jalb qilishni rag'batlantirish dasturlarini markaziy organlarning ruxsatisiz hayotga tatbiq etishlari mumkin.

Xitoy davlatining investitsiyalar bo'yicha qonunlari Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur kabi davlatlarining qonunlariga ko'p jihatdan o'xshash holda ishlab chiqilgan. Shuning bilan birgalikda ta'kidlash lozimki, turlicha davlatlarning qonunlarida chet el investorlari faoliyatiga cheklanmalar ham belgilangan. Deyarli barcha davlatlarda chet el kapitali kiritilishi mumkin bo'lmagan tarmoqlar mavjuddir. Qator davlatlarda chet el investitsiyalari uchun ayrim tarmoqlar to'liq yopiqdir.

Xorijiy investorlarning faoliyati bo'yicha cheklovlarni muvofiqlashtirishda mahalliy organlarning ishtiroki ham salmoqlidir. Qator davlatlarda mahalliy hududdagi iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib, xorijiy investorlarning faoliyatida turlicha cheklovlarni belgilaydi. Masalan AQShda ayrim shtatlarda foydali qazilmalarga chet el kapitalini jalb etish man etilgan bo'lsa, ayrim shtatlarda er uchastkasini sotib olishda cheklovlar belgilangan. Biroq, Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, ko'pgina davlatlarda hududiy investitsiya siyosatidagi moliyaviy-iqtisodiy imtiyozlarning va engilliklarning berilishi hududlarning iqtisodiy rivojlanishlariga zamin yaratmoqdalar.

Respublikamizda ham viloyatlarning, tumanlarning investitsion faoliyatdagi faolligini va mustaqilligini oshirish hududlarga chet el investitsiyalarini jalb etishda bir muhim mezon bo'lishi mumkin.

Jahon amaliyotida investorlarning manfaatlarini himoya qilish va kafolatini ta'minlashning quyidagi usullaridan foydalaniladi: milliy qonuniyatlarning chet el investorlariga nisbatan mos me'yorlarini qabul qilish; ko'p tomonlama

shartnomalarning me'yorlarini muvofiqlashtirish; kapital qo'yilmalarni o'zaro himoyalash va rag'batlantirish bo'yicha davlatlararo ikki tomonlama shartnomalarni muvofiqlashtirish; aniq olingan investitsiya loyihalari bo'yicha davlatlararo va xorijiy investorlar bilan kelishuvnomalarni muvofiqlashtirish. Respublikamizda bu qayd qilingan usullarning barchasidan foydalanilsada, lekin bizning fikrimizcha etarli darajada emas.

Yuqorida qayd etganimizdek, bizning fikrimizcha, respublikamiz investitsiya faoliyatida mahalliy hokimiyatlarning mustaqilligini va rolini oshirish va maxsus investitsiyalarni rag'batlantirishning mahalliy dasturlarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek hududlarda investitsiyalarning manbasi sifatida munitsipial va korporativ obligatsiyalarni muomalaga chiqarish va ulardan oladigan daromadlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash investitsiya oqimini ko'paytirishga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilishimiz mumkinki, mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatni xorijiy sarmoyani milliy iqtisodiyotga jalb etishda yangicha yo'nalishlarni kiritish va hali ishlatilmagan imkoniyatlardan imkon qadar ko'proq foydalanishga qaratish lozim. Bunda masalaga mamlakat iqtisodiyotining xarakteri va xususiyati doirasidan kelib chiqib yondoshiladi.

III bob bo'yicha xulosa

1. O'zbekiston Respublikasining xududlari iqtisodiyotiga investitsiyalar kiritilishini jadallashtirishda, xorij tajribasida qo'llangan dastak va vositalardan hududga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda oqilona foydalanish hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ijobiy natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

2. Investitsiyalar samaradorligini oshirishda investitsion muhit bilan bog'liq moliyaviy muammolarni doimiy tadqiq etish tizimini yaratish va mazkur sohaga aloqador tegishli muassasalar va ilmiy-tadqiqot institutlarining faol hamkorligini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

3. Amaliyot ko'rsatishicha, noqulay investitsion muhitning yuzaga kelishi ko'pincha soliq yukining haddan tashqari yuqoriligi va byudjet taqchilligi bilan ham ifodalanadi. Umuman olganda, soliq yuki – soliq to'lovchining muayyan davrda byudjetga to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisini ifodalaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning o'rni beqiyosdir.

Investitsiyalar ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishga xizmat qiluvchi va milliy xo'jalikdagi takror ishlab chiqarish jarayonlarini ta'minlovchi rolni bajaradi. Davlatning investitsiya siyosati esa maqsadli ravishda iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini jadallashtirishga qaratilgandir. Milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligidagi mavqeini mustahkamlash, milliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozoridagi raqobatbardoshlik darajasini yanada ko'tarish, sanoatning texnik tarkibini zamonaviylashtirish muammolari ham davlat siyosatining boshqa omillari qatorida investitsion siyosat orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistonda milliy iqtisodiyot barqarorligini oshirishda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalardan samarali foydalanishga erishish uchun quyidagi ilmiy takliflarni keltirish mumkin:

- investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza va qonunchilikni takomillashtirish;
- mamlakatimizda chuqur institutsional o'zgarishlar orqali investitsiyalarni boshqarishda davlat institutlari sifatini oshirish;
- erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish va samaradorligini oshirish;
- hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish jarayonlarini tezlashtirish va kengaytirish;
- investitsiyalarni faol o'zlashtirishda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish yordamida ishchi kuchidan oqilona foydalanishni tashkil etish va mehnat unumdorligini oshirish;

- bank infratuzilmasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish orqali kapital aylanishi tezlashuvini ta'minlash;
- korporativ boshqaruv sohasidagi yondashuvlarni tubdan o'zgartirish va qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va eksportni rag'batlantirish;
- eksportda qayta ishlangan, tayyor mahsulotlar salmog'ini ko'paytirish, ayniqsa, paxta va qishloq xo'jaligi mahsulotlarni qayta ishlashni oshirish va bu sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish.

Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor e'tibor berilmoqda.

Bu imtiyozlarni berishdan maqsad - horijiy investitsiyalarni ko'proq jalb qilish orqali iqtisodiyotimizning real sektori salohiyatini oshirish, yurtimiz hududlarida yangi, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, yangi ish o'rinlarini ko'paytirish, pirovard natijada mamlakatimizni barqaror va mutanosib tarzda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishdir.

Istiqbolda mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini quyidagi yo'nalishlarga jalb qilish maqsadga muvofiqdir:

- davlat byudjeti mablag'larini – fan-texnika taraqqiyotiga (yangi navlarni yaratish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish), irrigatsiya va melioratsiya tadbirlariga;
- korxonalar mablag'larini – tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va qayta ishlash korxonalarini tashkil etishga;
- aholi jamg'armalarini – bandsizlikga barham berish, qo'shimcha ishchi o'rinlarini yaratish va umuman ijtimoiy rivojlantirish tadbirlariga;

- xorij investitsiyalarini – ekologik toza, raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish, agroresurslardan samarali foydalanish, eksportni qo'llab-quvvatlashga;
- xalqaro maydonda mamlakatimizdagi investitsiya muhiti, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoq, kompaniya va tashkilotlarining investitsion imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni keng targ'ib etish, tahlil qilish, baholash va tasdiqlash kabi tadbirlarni kuchaytirish;
- raqobatbardosh mahsulotni ta'minlovchi yangi ishlab chiqarish va tarmoqlarni yaratishga, diversifikatsiya jarayonlariga erishish uchun ishlab chiqarishga fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini boshqarishning ilg'or usullarini joriy etgan holda qayta ishlab chiqarish zaxiralarini tejashni tashkil etish;
- mamlakatimizdagi bozor axborot xizmatini rivojlantirish, marketing xizmati faoliyatini va tashqi iqtisodiy qonunchilikni faollashtirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni faollashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1.O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni//Xalq so'zi. 1998 yil 24 dekabr. (2014 yil 9 dekabrda yangi tahririda qabul qilingan).

1.2.O'zbekistonn Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonuni// Xalq so'zi. 1998 yil 30 aprel.

1.3.O'zbekiston Respublikasining «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi Qonuni// Xalq so'zi. 1998 yil 30 aprel.

1.4.O'zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy hududlar to'g'risida”gi Qonuni, 1996 yil 25 aprel.

1.5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 15-son, 167-modda.

1.6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. 2017 yil 7 fevral.

1.7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2868-sonli qarori. 2017 yil 4 aprel.

1.8.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3356-sonli qarori. 2017 yil 25 oktyabr.

1.9.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirishning yangi tartibini joriy etish to'g'risida”gi PQ-3437-sonli qarori. 2017 yil 18 dekabr.

1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasida investitsiya loyihalarini amalga oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3687-sonli qarori. 2018 yil 28 aprel.

1.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5495-sonli Farmoni. 2018 yil 1 avgust.

1.12. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.

1.13. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 104 b.

1.14. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.

1.15. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

1.16. Андрианов А.Ю., Валдайцев СВ. Инвестиции: учеб.-3-е изд., перераб. и доп.- М.:ТК Велби, Изд-во Проспект, 2012 - с 58.

1.17. Валинурова Л.С., Казакова О.Б. Управление инвестиционной деятельностью. – М.: Кнорус, 2012. – 112 с.

1.18. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. – T.: «Moliya», 2010. –b. 139-147.

- 1.19. Вахобов А.В., Г.Х.Разикова, Ш.Х.Хаджибакиев Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики. Т.: «Молия» 2011 г. - 124 с.
- 1.20. Вахрин П.И. Инвестиции: Учебник. – М.: «Дашков и К», 2011. – 380 с.
- 1.21. Dunning, John, 1981. International Production and the Multinational Enterprise. Allen & Unwin, London.
- 1.22. Зубченко Л.А. Иностранные инвестиции. Учебное пособие. – М.: Книгодел, 2010 г. – 184 стр.
- 1.23. Игонина Л. Инвестиции– М.: Магистр, 2014. – 752 с.
- 1.24. Ивасенко А.Г. Инвестиции: источники и методы финансирования. – М.:Изд.“Омега Л”, 2009 г. – 261 стр.
- 1.25. Karimov N.G', Hoximatov R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" Darslik. - TDIU, 2011-B. 31.
- 1.26. Ковалев В.В. Методы оценки инвестиционных проектов.-- М.: Финансы и статистика, 2008. – 144с.
- 1.27. Ковалев В.В. Инвестиции. – М.: Проспект, 2017. – 592 с.
- 1.28. Колмикова Т.С. Инвестиционный анализ. Учебное пособие. – М.: ИНФРА – М, 2010 г. – 204 стр.
- 1.29. Леонтьев В., Бочаров В., Радковская Н. Инвестиции– М.: Юрайт, 2015. – 464 с.
- 1.30. Maxmudov N.M, Madjidov Sh.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2010. - 86-b.
- 1.31. Meyer, Klaus E., 1998. Direct Investment in Economies in Transition. Edward Elgar, Aldershot.
- 1.32. Несветаев Ю.А. Экономическая оценка инвестиций. – М.: МГИУ, 2011. – 163 с.
- 1.33. Портер М. Международная конкуренция / М. Портер. – М.: Альпина Паблишер, 2019. - 947 с.

- 1.34. Хазанович Э., Юнусов Л., Юнусов И. Международные финансы. Учебник. КноРус, 2017. – 334 с.
- 1.35. Хасбулатов, Р. И. Международные финансы: учебник для магистров / Р. И. Хасбулатов. — М.: Издательство Юрайт, 2014. – 567 с.
- 1.36. Хасбулатов Р. И. Мировая экономика. — М.: Экономика, 2016. Т.1.
- 1.37. Шарп У., Александер Г., Бэйли Д. Инвестиции: Учебник / Шарп У.Ф., Александер Г.Д., Бэйли Д.В. - М.: НИЦ ИНФРА-М, 2016. - 1040
- 1.38. Эскиндаров М., Звонова Е. Международные валютные отношения. Учебник. – М.: КноРус, 2018. 540 с.
- 1.39. Эскиндаров М., Звонова Е. Мировые финансы. Учебник. КноРус, 2019. – 424 с.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

- 2.1. Abraev N.K. Jamoaviy investitsiyalash institutlari faoliyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. №2, aprel, 2017 yil.
- 2.2. Akamatsu, Kaname. “A Theory of Unbalanced Growth in the World Economy,” Welwirtschaftliches Archiv 86 (2), 192-215.
- 2.3. Alfaro L. "Gains from Foreign Direct Investment: Macro and Micro Approaches."World Bank Economic Review: 1–14.; Bayraktar N. Foreign Direct Investment and Investment Climate // Procedia Economics and Finance. 2013. Vol. 5. P. 83–92.
- 2.4. Almatova D.S. Tadbirkorlik faoliyatiga investitsiya jalb qilishning mintaqaviy xususiyatlari. Monografiya. –Т.: «Noshir», 2013. 194 b.
- 2.5. Бекмурадов А.Ш. Глобальные тренды на мировых финансовых рынках и проблемы привлечения технологических инвестиций для

реализации промышленной политики Узбекистана// Молия ва банк иши электрон илмий журнали. №2, январь, 2016 й.

2.6. Berkinov B.B. To‘g’ridan-to‘g’ri xorijiy investitsiyalar samaradorligi// Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. №5, 2015 y.

2.7. Buckley P., Casson M. The optimum timing of foreign investment // Economic Journal. 1981. № 91. P. 75-87.

2.8. Vernon R. International investment and international trade in the product cycle // Quarterly Journal of Economics. 2016. № 80. P. 190-207.

2.9. Грибова Е.В. «Инвестиционный климат в России: приток и отток иностранного капитала»// Экономический анализ: теория и практика, №12(315), 2013. С.27-37.

2.10. C. Guadalupe, J.Rivera, G.Castro Foreign direct investment in Mexico Determinants and its effect on income inequality// Contaduría y Administración. 2013. Vol. 58. № 4. P. 201–222.

2.11. Caves, R.E. (1971), "International Corporations: The Industrial Economics of Foreign Investment", Economica, Vol. 38, 1-27.

2.12. De Gregorio J. «The role of foreign direct investment and natural resources in economic development». 2003. Working Paper No 196. Central Bank of Chile, Santiago.

2.13. Dunning, J.H. The Eclectic (OLI) Paradigm of International production: Past, Present and Future, International Journal of the Economics of Business, 8(2), 2001, pp. 173-190.

2.14. Зайцев Ю.К. «Диагностика притока прямых иностранных инвестиций в Россию: от теории к практике» //Экономический анализ: теория и практика, №19(418), 2015. С.16-25.

2.15. Imomov H.H. O‘zbekiston mintaqalaridagi investitsion muhitning jozibadorlik holatini tavsiflovchi omillar / “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2 noyabr, 2011 y.

2.16. Исаджанов А.А. Узбекистан: потенциал инвестиционного сотрудничества// Иностранные инвестиции в Республике Узбекистан. №1, 2008 й.

2.17. Karimov N.G'. Iqtisodiy integrallashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. – T.: Fan va texnologiya, 2007. -214 b.

2.18. Kim, D. D. and J. Seo ‘Does FDI Inflow Crowd out Domestic Investment in Korea?’// Journal of Economic Studies, 2003. 30 (6): 605-22.

2.19. Kojima K. The flying gees model of Asian economic development: Origin, theoretical extensions, and regional policy implication// Journal of Asian Economics, 11(4): 375-401.

2.20. Mamatov M.A. Iqtisodiy o‘shishda investitsiyalardan samarali foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2016 yil.

2.21. Махмудов Н. М. Инвестиции – ресурсный двигатель экономики// Иностранные инвестиции в Республике Узбекистан. – Ташкент, № 2, 2008 й.

2.22. Муинов Ж, Федяшева Г. Прогнозирование инвестиционных процессов и механизмы дальнейшего улучшения инвестиционного климата // Отчет о научно-исследовательской работы за 2015-2017 гг., ИПМИ, 2017 г.

2.23. Mustafakulov Sh.I. O‘zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: BMA, 2017 y. 68-b.

2.24. Mustafakulov Sh.I. Investitsion faoliyat, salohiyat va jozibadorlik // Bozor, pul va kredit. Toshkent, 2017. № 4. 10-18-b.

2.25. Norov A.R. Iqtisodiyot rivojida investitsiya va investitsion kreditlashning muhim omillari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2017 yil.

2.26. Nosirov E.I. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash va investitsiyalash obyektni tanlashning zamonaviy usullari. Iqtisodiyot va ta’lim. 2003., 4-son, 49-57 betlar.

2.27. Paula Nistor. FDI Implications on BRICS Economy Growth. Procedia Economics and Finance. Volume 32, 2015, Pages 981-985. (<https://www.sciencedirect.com>, <https://www.scopus.com>).

2.28. P. Jadhav. Determinants of foreign direct investment in BRICS economies: Analysis of economic, institutional and political factor // Procedia – Social and Behavioral Sciences. 2012. Vol. 37. P. 5-14. (<https://www.sciencedirect.com>, <https://www.scopus.com>).

2.29. Rugman A., Verbeke A. A perspective on regional and global strategies of multinational enterprises // Journal of International Business Studies. 2014. V. 35. № 1. P. 3-18. (<https://www.sciencedirect.com>, <https://www.scopus.com>).

2.30. Tain-Jy Chen and Ying-Hua Ku. The effect of foreign direct investment on firm growth: the case of Taiwan's manufacturers. Japan and the World Economy, 2000, vol. 12, issue 2, 153-172.

2.31. Sultonboeva M. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini amalga oshirishning hududiy xususiyatlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2017 yil.

2.32. Umarova Z., Xalilova I. Mamlakatimizda investitsiyaviy saloxiyatni oshirishda bank tizimining roli. // Bozor, pul va kredit. №2.2016 y.-B. 37.

2.33. Vaxobov A.V. Barqaror iqtisodiy o'sish kontseptsiyalarini transformatsiyalashuvi va amal qilish xususiyatlari. Respublika Ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari TMI. 2016 yil.

2.34. Valiev B.B. Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish mavzusidagi falsafa doktori (PhD) ilmiy dar. olish uchun yozilgan diss.avtoreferati. T.: BMA. 2018 y. 21 b.

2.35. Хашимова Н.А. Агрегатный анализ динамики структуры инвестиционного потенциала Узбекистана// Экономический вестник Узбекистана. №5. 2016 г.

2.36. Xaydarov N.X. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar imkoniyatlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, №1, 2011 y.

2.37. Xiaoyang Chen, Maggie; Lin, Chuanhao. Foreign Investment across the Belt and Road: Patterns, Determinants, and Effects. Policy Research Working Paper. <http://documents.worldbank.org/curated/en/394671539175518256/Foreign-Investment-across-the-Belt-and-Road-Patterns-Determinants-and-Effects>.

2.38. Xudaykulov Sh.R. Korporativ boshqaruvda samarali investitsiya siyosatining nazariy jihatlar. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2016 yil.

2.39. Чепель С.В. Системный анализ и моделирование перспектив устойчивого развития национальной экономики Узбекистана// Диссертация. Ташкент: IFMR, 2014. -с.116.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

3.1. <http://www.gov.uz> – (O‘zbekiston Respublikasining hukumat portali).

3.2. <http://www.press-service.uz> – (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati).

3.3. <http://www.stat.uz> – (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy veb sayti).

3.4. <http://www.lex.uz> – (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi) .

3.5. <http://www.mf.uz> – (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb sayti).

3.6. <http://www.unctad.org> – (United nations conference on trade and development).

3.7. <http://www.economy.gov.ru> – (Rossiya Federatsiyasi iqtisodiy rivojlanish vazirligi rasmiy veb sayti).

3.8. <https://www.sciencedirect.com> – (Xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasi).

3.9. <https://www.scopus.com> – (Xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasi).